

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

**“Modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida o`quvchilarda milliy
tarbiyani shakllantirish yo`llari” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich sinf va sport tarbiyaviy
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs
talabasi **Valiyeva Z.**_____

ILMIY RAHBAR:
o'qituvchi O.Ergasheva

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “ _____ ” _____2013 yil

**MAVZU: MODERNIZATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONIDA
O`QUVCHILARDA MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH
YO`LLARI**

REJA:

KIRISH.

**I-BOB. MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

1.1. Milliy tarbiyaning mazmuni.

1.2. Ta'lim jarayonida o`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda ta'lim muassasalarining imkoniyatlari.

**II-BOB. MODERNIZATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONIDA
O`QUVCHILARDA MILLIY TARBIYANI
SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA USULLARI.**

2.1. Dars va darsdan tashqari mashg`ulotlarda milliy tarbiyani shakllantirish yo`llari.

2.2. Milliy tarbiyani shakllantirishda oila maktab, mahalla hamkorligi.

XULOSA VA TAVSIYALAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

KIRISH

Ta'limning milliy yo`naltirilganligi O`zbekistonning Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tamoyillaridan biridir. U ta'limning milliy tarix, xalq an'anatari va urf-odatlarini bilan uzviy uyg`unligini, Uzbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o`ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarix va madaniyatini hurmatlashga yo`naltirilgan yangi tarbiya tizimini taqozo qiladi. Ushbu davlat buyurtmasini mukammal bajarmoq uchun uzluksiz ta'lim tizimi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari nuqtai nazaridan isloh qilinmoqda. Chunki bu O`zbekiston uchun muhim strategik, siyosiy zaruradir.

Tarbiyani baynalminallashtirish siyosati va amaliyotining asoratlaridan qutulish istagi, bugun xalqlarning o`z milliy g`ururini tiklash, ajdodlar merosini o`rganish kabi ehtiyojlarida namoyon bo`lmoqda. Shu nuqtai nazardan mustaqillikni qo`lga kiritgan millatlarning qadimgi milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklashga bo`lgan ehtiyoji tabiiy, qonuniydir. Bu esa milliy tarbiya masalasini ilmiy talqin qilishni ma'rifiy zarurat maqomiga ko`taradi.

Milliy-zamoniylashuv yo`lidan borish BMTning teng huquqli a'zosi — O`zbekistonning «Inson huquqlari Deklaratsiyasi»da «Har bir kishining ona tilidan foydalanish, ona tilida ta'lim olish, milliy madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirish huquqi ta'minlanadi», — deb ta'kidlangan 4-moddasini amalda tatbiq etishga kirishganligidan ham dalolat beradi. YuNESKO amaliy tamoyillarida «o`z madaniyatiga ega bo`lmagan xalq yo`q; har oir madaniyat hurmat qilinishi va saqlab qolinishi kerak bo`lgan qadr-qiymatga ega; o`z madaniyatini rivojlantirish har bir xalqning huquqi va burchidir»¹ deyiladi. Demak, qo`lga kiritilgan mustaqillik barcha millatlar kabi o`zbek xalqiga ham milliy o`zlik, axloq, ma'naviyatni tiklash huquqini, imkoniyatini berdi. Mustaqil O`zbekistonning kelajagi, bizningcha, shu tarixiy imkoniyatdan yosh avlodni tarbiyalashda qanchalik samarali foydalana olishimizga bog`liq.

¹ Л.Лебедев. Правда и ложь о культурном обмене. —Л. Лениздат, 1985, с.102

Davlat bosh islohotchi boʻlgan mustaqil Oʻzbekistonda ta'lim va tarbiyaning milliy asosga qurilishining eng oliy vakolati uning Konstitutsiyasida himoyaga olingan. Konstitutsiyaning mohiyati ochiqlik, hamkorlik, milliy madaniyatlar ravnaqi, millatlararo inoqlik, dinlararo bagʻrikenglik ruhiga ega. Oʻzbekistonda milliy madaniyatlarni tiklash, ravnaq toptirish yoʻlida milliy-madaniy markazlar tashkil etilganligi, bu markazlar faoliyati matbuot, radio va televideniada keng yoritilayotganligi va boshqa koʻplab misollar mustaqil Oʻzbekiston milliy munosabatlarini takomillashtirishning yangi — milliylikni tiklash, boyitish orqali umummilliy va umuminsoniy totuvlikka erishish yoʻlini tanlaganini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov 1991 yil 24 sentyabrda Toshkentda boʻlib oʻtgan xalqaro anjumanda barcha millatdoshlarimizni oʻzbek xalqiga xos olijanob fazilatlar va vatanparvarlik an'anasiga munosib boʻlishga chaqirgandi. Darhaqiqat, milliy-madaniy birlik, oʻzlikni saqlab qolishga da'vat Oʻzbekistondan chiqishi tabiiy, adolatlidir va zinhor millatchilik emas. Chunki «oʻzbek milliy madaniyati, tili an'anasini haqqoniy ravishda tiklash va rivojlantirish aholining boshqa milliy guruhlaridagi mana shunday jarayonlar hisobiga boʻlmazligi»² davlat tomonidan kafolatlanadi.

Oʻz taqdiriga befarq boʻlmagan qaysi jamiyatda ijtimoiy islohot zarurati yuzaga kelsa, oʻsha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e'tibor keskin kuchayib, tarbiya — jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi, deya tan olinadi. Tarix bu kabi misollarga boy. Ana shu nuqtai nazardan mustaqil Oʻzbekiston maktablari qarshisida turgan vazifa dolzarb va murakkabdir. Chunki zamonaviy maktab oʻzbek xalqining eng goʻzal fazilatlaridan boʻlgan milliy gʻurur, millatlararo muloqot madaniyati, vatanparvarlik, milliy odob, sof vijdon, milliy gʻoyani oʻz yoʻl koʻrsatkichi qilib olib, yagona Vatan — Oʻzbekistonning dunyo miqyosidagi sharafiga xizmat qila oluvchi oʻgʻil-qizlarning yangi avlodini tarbiyalab etishtirishi lozim. Bu milliy-istiqboliy buyurtma kompleks tarzda — oila bolalar bogʻchalari, maktab, mahalla, turar

² I.A.Karimov. «Mening maslahatim: inson baxt-saodati, respublika manfaatlari». «Oʻzbekiston ovozi», 1991 yil 27 dekabr

joylarlar, maktabdan tashqari muassasalar hamkorligida olib boriluvchi milliy tarbiya jarayonidagina amalga oshirilishi mumkin.

«Milliy tarbiya» tushunchasi ko'p qirrali tushunchadir. Uning:

- milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat;

- umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli;

- xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, giklash va rivojlantirish (YuNESKO tamoyili) vositasi;

- O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsad, vazifa va tamoyillarining tarkibiy qismi;

- turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma'naviy manbai;

- o'quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go'zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo'nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili;

- millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O'zbekisgonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarona yo'li va vositasi;

- ijtimoiy tarbiya va maktab tarbiyasi uyg'unligining pedagogik sharti;

- insoniyatni umumbashariy uyg'unlikka olib borishning pedagogik yo'li;

- ijtimoiy-ma'naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik ob'ekti va vositasi;

- o'quvchilarda milliy (avto va getero) stereotiplarni maqsadli shakllantirish, ma'naviy boyitish jarayoni ekanligi shundan dalolat beradi.

Mustaqil O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarining milliy tarbiya tizimi — bu o'zbek xalqining o'ziga xos milliy madaniy fe'l-atvori, axloq qoidalariga va milliy mustaqillikni mustahkamlashning tarbiyaviy talablariga asoslanuvchi, xalq hayotining barcha jabhalari bilan chambarchas bog'liq, yangi, hech kimdan kam bo'lmagan barkamol avlodni shakllantirishning pedagogik jarayonidir. Milliy tarbiya O'zbekistonda ilmiy-pedagogik atama sifatida milliy mustaqillik bergan imkoniyat orqali yangidan ko'tarilib qo'llanilayotgan bo'lsa-da, u azal-azaldan goh oshkora, goh pinhona tarzda bo'lsin, xalqimiz turmushida bardavom edi. Chunki o'zbek xalqining tarixi — o'zbekchilikka asoslangan milliy tarbiyaning tarixi hamdir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida o`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida o`quvchilarda mmilliy tarbiyani shakllantirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. O`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari, vositalari.

Bitiruv malakaviy ishning farazi. Agar:

- O`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni boyitilsa;
- O`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy metod va vositalaridan samarali foydalanilsa;
- Modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida o`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda, tarixiy milliy qadriyatlardan foydalanilsa milliy tarbiyani shakllantirish samarali bo`ladi

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

Modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida o`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirish.

O`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish, ularning samaradorlik darajasi aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. O`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni, shakli, metodlari, vositalari belgilab berildi. Bitiruv malakaviy ishdagi tavsiyalardan o`quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida o`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishning usullari vositalari aniqlandi. Bitiruv malakaviy ishlari sifatida ilk bor o`rganildi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini Prezident asarlari, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining “Ta'lim to`g`risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Qonunlari, “Davlat ta'lim standartlari”, Sharq allomalarining tarbiya haqidagi qarashlari.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Kirish, ikki bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I-BOB. MODERNIZATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONDA O`QUVCHILARDA MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Ta'lim jarayonida o`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda tarixiy-pedagogik tajribalarning o`rni.

Milliy tarbiya vositasida avloddan-avlodga o`tuvchi milliy madaniyat va uning sivilizatsiya bilan munosabatini misrlik mashhur pedagog Sote' al-Husriy (1880—1968) o`z tadqiqotlarida yaqqol ochib berdi. «Menga madaniy birlikning kafolatini bering, men esa sizga birlikning boshqa barcha turlari kafolatini beraman» degan mashhur fikr ana shu olimning qalamiga mansub. Al- Husriy Sharqda milliy-zamonaviylik oqimining tashkil topishiga katta hissa qo`shdi. U zamonaviy arab milliy madaniyati tiklanishi arafasida pedagogikada «eskilik-yangilik», ya'ni milliy fundaments'tizm va milliy zamonaviylik orasida tafovut mavjudligi muammosini kun tartibiga ko`ydi. At-Husriy, bir tomondan, milliylikni faqat tarixiy an'ana deb tushunuvchi fundamentalizm, qadimiychilik tarafdorlarini, ikkinchi tomondan, milliylikdan yuz o`girib Ovrupo madaniyatiga taqlid qilishga undovchi «tarbiya»larni tanqid qilib, bu tarbiyaviy muammoni faqatgina «sintez qilish orqali» echish mumkin, degan ilgor fikrni o`rtaga tashladi.

Yuqoridagi ilmiy ta'riflarning nosinfiy, xolis tahlili «madaniyat», «milliylik» tushunchalarining tarixiy, zamonaviy va istiqboliy tushunchalar janligi haqidagi xulosani hosil qiladi, «Sivilizatsiya» tushunchasi esa ko`proq jugrofiy, mintaqaviy xususiyatga ega bo`lib, asosan fan va texnika yutuqtarini egallagaplik darajasini ifodalaydi. Ushbu talqinlar ilgari bsrib o`tilgan ta'riflarni inkor qilmaydi, aksipcha to`ldiradi, aniqlashtiradi. Demak, madaniyat milliydpr, sivilizatsiya esa umuminsoniy zamonaviylikdnr. Milliylik va sivilizatsiyalashganlik uyg`unlashgandagina insoniyat ma'naviy va moddiy madaniyatlar uygunligiga erishadi. Zero, «milliyliksiz insoniyat mantiqiy mavhumlikka, mazmuni yo`q so`zga, ma'nosi yo`q tovushga aylanib qoladi».

Har bir millatda, mamlakatda davom etayotgan tarbiyaviy jarayon umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir. Demak, har bir davlatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya siyosati ham umumbashariy ehiyojlardan kelib chiqib muvofiqlashtirilmog`i kerak. Chunki insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri barcha xalqdarga bir xil bog`liq va qimmatlidir. Sayyoramizga raxna solayotgan azon qatlamining emirilishi, SPIDning tarqalishi, ekologik xavf-xatarlar, terrorizm xuruji, antropologik tahdidlarni «umumbashariy pedagogik birlik»ka erishmay turib bartaraf qilish mushkul.

Afsuski, bu zaruriy birlik mazmuni turlicha tushunilmoqda. Jumladan, ayrim hollarda «umumbashariylik» tushunchasi «ovrupolashganlik» sifatida talqin va tashviq qilinmoqda. Umumbashariy pedagogik birlik g`oyasi «umumbashariy pedagogik bir xillashuv» emas, balki barcha milliyliklarning insoniyat qarshisidagi xavf, tahdidlarga qarshi millatlararo pedagogik birligi bo`lmog`i kerak. Zero, shaxs avvalo milliylashib, ijtimoiylasha borgani sari umuminsoniy mansublikka yaqinlashadi. Demak, shaxs umuminsoniy qadriyatlarni to`g`ri, ijobiy qabul qila olishi uchun, avvalo, o`zi shakllangan muayyan milliylikning barkamol sub'ektiga aylana olishi kerak. Shu o`rinda mamlakatimiz taraqqiyoti tamoyillaridan biri sifatida belgilangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini mamnuniyat bilan qayd etish lozim.

Milliylikning barkamol sub'ektini tarbiyalashni tadqiq qilish yo`lidan borar ekanmiz, milliylikning nafaqat madaniy-ijtimoiy, balki fiziologik asoslari ham ochildi.

Fiziologlar olib borgan izlanishlar kishi u yoki bu millat tilida so`zlashgan vaqtida uning tashqi qiyofasi, yuz ko`rinishi o`sha millat kishilariga o`xshab ketishini asoslamoqda. Chunki boshqa tilda so`zni talaffuz qilish, tushuntirish uchun o`sha millatda qabul qilingan imo- ishoralar, xatti-harakatlardan foydalaniladi. Shuning uchun ham «kishi boshqa millat axborotini qabul qilmasdan turib, miyaning toza bo`limlariga avvalo o`z ona tilida va o`sha hududga tegishli axborotni joylashtirgandagina milliy o`ziga xoslikni saqlab qoladi. Mabodo olinayotgan axborot turli-tuman, omuxta bo`lsa, ustiga-ustak keraksiz axborot qabul qilinsa, u

miyada mustahkam o`rnasha olmaydi. Natijada, bunday kishi fikrlash jihatidan ham arosatda qoladi».

Etnopsixologlarning bergan xulosalariga ko`ra, milliy psixologiyani aynan o`sha etnos vakillarining faoliyat, xulq-atvor va muloqotlari jarayonlari orqali o`rganish mumkin. Bizningcha, milliy tarbiya jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlarini o`rganish uchun ham aynan shu yo`ldan bormoq samaralidir. Zero, milliy tarbiya milliy (ichki) va millatlararo (tashqi) munosabatlarning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy tarbiya jarayonida makondagi muqimlik va milliy-madaniy jipslikni, birlikni ta'minlovchi etnik, milliy ma'lumotlar sinxron va diaxron shaklda avloddan-avlodga uzatiladi. Shunday qilib, faqat shu millatgagina xos bo`lgan o`ziga xos tarbiyaviy tizim ushbu millatning boshqa millatlardan farq qilishini, ichki yaxlitligini, benazirligini ta'minlaydi. Agarda milliy tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa, stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o`zligini anglash darajasi, milliy g`ururi, madaniyati, vatanparvarlik darajasi susaya boradi. Chunki har bir individ o`zig`a xos milliy-madaniy an'analar, me'yorlari bo`lgan jamiyatda shakllanadi. Ana shu urf-odat, me'yorlar, an'analar ruhida ijtimoiylashuvi uni ana shu madaniy-tarixiy birlikning a'zosig`a aylantiradi. Bu jarayonni boshqacha tarzda chaqaloqning yo frantsuz, yo hind, yo o`zbekka aylanish jarayoni, deb ham ifodalash mumkin. Chaqaloqning (milliy tarbiya ob'ekti o`laroq) o`zbek sifatida shakllanishi o`zbeklar uchun an'anaviy bo`lganligi tufayli ko`zga tashlanmaydi. Tadqiqotlar shuni qayd qilmoqdaki, shaxs madaniylasha (ukrainlasha, arablasha, o`zbeklasha...) borar ekan, bu milliylashuv jarayoni milliy-ijtimoiyrollar talablaridan kelib chiqib, jamiyatning uzluksiz payurat ostida amalga oshadi. «Milliy-ijtimoiy rol» tushunchasini, zamonaviy ijtimoiy rollar sotsiologik kontseptsiyasi va I. Konning-ijtimoiy rolga bergan ta'rifidan foydalangan holda, «muayyan milliy birlik ichida an'anaviy ma'qullangan, shu millatga mansub a'zolaridan ularning yoshi, jinsi va muayyan vaziyatdan kelib chiqib kutiladigan xulq-atvor namunasi», deb ta'riflash mumkin.

«O`quvchining milliy roli» tushunchasi milliy tarbiyani tahlil qilish uchun sotsiologik kalit vazifasini o`taydi. Chunki bu tushunchaning ko`pqirraligi milliy-

zamonaviy hayot jabhalarini, milliy tarbiya yo`nalishlarini ilg`ab olish imkonini beradi. Milliy tarbiya tizimini

«milliy rol» tushunchasi orqali o`rganish har bir o`zbek o`g`il-qizini ilk yoshlaridan «yaxshi bola», «yaxshi aka, uka, singil, opa», «yaxshi jiyan, tog`a, bo`la...», «yaxshi mehmon, mezbon», «yaxshi do`st», «odobli bola» kabi «unvonli» munosabatga tayyorlash mexanizmini ochib beradi. Keng ma'noda esa o`quvchining milliy rolini o`zlashtirishi — o`z ichiga milliy fazilatlarni, milliy axloq me'yorlarini singdirishi, milliy-ijtimoiy hayotga tayyorgarlik jarayonlarini ham jamlaydi.

Milliy ijtimoiy rollarni tasniflash, ularning kundalik hayotda, munosabatlarda bajarilishini ilmiy-pedagogik kuzatish — zamonaviy va istiqbolli usuldir. U bolani «qarshisida» turib emas, balki milliy-ilmiy kuzatish imkonini beradi. Bu esa tadqiqotning ob'ektiv natijalarga ega bo`lishining asosiy shartlaridan biridir.

Zamonaviy fanlar ijtimoiy rollarning quyidagi tasnifini ilgari suradi:

tug`ma, mavqeli ijtimoiy rollar — odam tug`ilganidanoq yoki hayotining u yoki bu bosqichiga kirishganida «meros qilib olinuvchi» rollar (jinsiy, diniy, milliy, fuqarolik, go`daklik, o`smirlik, yigitlik, mo`ysafidlik va b.);

o`zgaruvchan — doimiy bo`lmagan, o`zgarishi mumkin bo`lgan ijtimoiy rollar. (Masalan, u yoki bu kasbni egallash, biror uyushmaga, jamiyatga a'zo bo`lish va undan chiqish mumkin, hatto fuqarolikni ham o`zgartirish mumkin. Biroq tug`ma milliy rollar (o`zbeklik, frantsuzlik va h.k.)dan chiqib bo`lmaydi.)

Muayyan vaziyatdagi ijtimoiy rollar — yo`lovchilik, xaridorlik, mehmonlik, mezbonlik va h.k. rollari o`zgaruvchan rollar bilan kamroq, tug`ma rollar bilan ko`proq aloqada bo`ladi. Muayyan vaziyatdagi rollar maxsus va shaxsiy ahamiyatga egaligi tufayli kishini yo`lovchi, xaridor, mehmon yoxud mezbonga «aylantirsa», shaxsiy fazilatlar mohiyatidan kelib chiqib shaxsni «do`st», «dushman», «mehribon kishi», «taqvodor kishi», «fidoyi odam» va boshqalarga aylantiradi. Demak, shaxs tashqi muhit (tabiat, jamiyat, shaxslar) bilan munosabatga kirishganida milliy xususiyat (o`ziga xos bo`lgan «ukraincha», «xakascha», «gruzincha» yondashuv) kasb etadi. Bu fikr ilk bor nemis sotsiologi U. Gerxard tomonidan tug`ma ijtimoiy rol sifatida taklif qilingan, keyinchalik Yu. Sorokin, E. Tarasov, N.Ufimtsevalar

tomonidan ijtimoiy fanlarga kiritilgan edi. Lekin, nazariy jihatdan asoslanganligiga qaramasdan, milliy rolning tug`ma meros, vorislik xususiyatini o`rganish, rivojlantirish sotsialistik internatsionalizm tamoyillariga mos kelmasligi tufayli rivojlantirilmadi.

Sharq, xususan, o`zbeklar milliy tarbiyasining falsafiy, metodologik asoslarini Sharq falsafasi — dunyoni idrok qilishning sharqona «ruhi», uslubini tushunmasdan aniqlab bo`lmaydi. Dunyoni idrok qilishning sharqona tarzi mavjudligidan kelib chiqish yaqin yillargacha ijtimoiy fanlarda etakchilik qilib kelgan bir yoqlamalik — evropotsentrizm oqimiga barham beradi. G`arb kishisining ongidagi personalistik qarash xristianlikning, sharq kishisi ongidagi antipersonalistik qarash esa islomning bevosita ta'sirida yuzaga keldi. Ana shuning uchun ham ovrupolik shaxs mohiyatini xristianliksiz, sharq kishisining mohiyatini esa islom dinining axloqiy qarashlarisiz tadqiq qilish yanglish xulosalarga olib keladi. Jumladan, to shu paytgacha Sharq axloqining qomusi — Qur'oni karim, hadisi shariflar, shariat pedagogik e'tibordan chetda qoldirilib kelinayotgan edi. Biz imkon darajasida ana shu nazariy-pedagogik kamchilikni to`ldirishga harakat qilamiz.

Dinning insoniyat ma'naviyatida tutgan roli beqiyosdir. Shu bois pedagogika barcha millatlarda sodir bo`lgan dinga qiziqishning, diniylikning tiklanayotganligiga e'tibor qilmog`i kerak. Chunki din — dunyoqarashni tashkil qiluvchi ongning tarkibiy qismidir. Dinda inson, uning mohiyati, milliyliigi haqida mulohazalarning ulkan, yaxlit tajribasi mavjud. Uning vazifasi e'tiqod orqali inson, jamiyatning ruhiyatini uyg`unlashtirib, tarbiyalashdir. Ana shu nuqtai nazardan har bir din — o`zi asoslagan ma'naviy ta'lim va axloqiy tarbiya tizimidir. Bu, odatda, muayyan dinga mansub xalqlar, millatlar (masalan, islom diniga mansub arab, tatar, tojik, turk, qozoq, o`zbek va boshqalar)ning umumdiniy yoki baynalminal ma'naviyati va axloqini hosil qilib kelgan.

Millatning paydo bo`lishi, rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy formadiyalar bilan belgilash, o`lchash nisbiydir. Chunki «millat» tushunchasi millatning mavjudligi haqidagi hujjatdir. Bu tushuncha esa qadimiy bo`lib, bizning keyingi talqinlarimiz, uning asl mohiyati qandayligidan emas, balki bizga qanday tushuntirilganidan kelib

chiqqanligi tufayli sub'ektivdir. Zero, millat, o`ziga xos barcha xususiyatlari bilan birlamchi, bizning talqinlarimiz esa ikkilamchidir. Ana shu nuqtai nazardan millatlarning paydo bo`lishi haqidagi diniy qarashlar ham pedagogik diqqatga sazovordir.

Qur'oni karimning Baqara, Yunus, Hud, Naxd suralarida odamlarning dastlab bir millatga mansub bo`lganliklari, so`ngra esa bo`linib ketganliklari haqidagi fikr bir necha bor qayd qilinadi. Qur'oni karim har bir mo`min kishini o`z milliy qadriyatlarini boyitishga, o`z millatidan kechib, boshqa millat qo`shimchasiga aylanib ketmaslikka chaqiradi: «Va sizlar bir millat boshqa millatdan (son yo boyluk jihatidan) ortiqroq bo`lgani uchun qasamlaringizni (buzib) aldov vositasi qilishingiz bilan(ya'ni, boshqa boyroq va kuchliroq qavmni topsangiz, avvalgi qasamlaringizdan kechib ketaverishingiz bilan) xuddi o`zi to`qigan narsasini pishiq-puxta bo`lganidan so`ng parcha-parcha buzib-chuvatib tashlagan xotinga o`xshab qolmangiz! Albatta, Oллоh bu (ahdga vafo qilishga buyurish) bilan sizlarni imtihon qilur va albatta qiyomat kunida sizlarga ixtilof qilib o`tgan narsalaringizni bayon qilib berur»³.

Qur'oni karimdagi ushbu ishoradan kelib chiqib, milliy tarbiya yosh avlodlarda o`z va o`zga xalqlarga hurmat, milliy g`urur, vatanparvarlik, milliy va millatlararo muloqot odobi kabi fazilatlarini shakllantiradi va o`zbek xalqini ma'naviy va moddiy jihatlardan boy millatga aylangirishga xizmat qiladi, deya olamiz.

Milliy tarbiyaning manbai — milliylik! «Millat», «milliylik», «milliy gurur», «milliy odob», «millatlararo muloqot madaniyati» tushunchalarining o`zagini arabcha «mil» so`zi tashkil qiladi. Bu so`z arabchada «o`zak», «tub mohiyat», «negiz» ma'nolarini anglatadi. «Millat» so`zi esa bir necha ma'noni: 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi; 3) xalq ma'nolarini anglatadi⁴.

«Millat», «milliylik» tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g`arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko`ramiz. Aniqrog`i, g`arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o`zaklarga borib tutashadi. Ya'ni Ovrupo xalkdari tillariga «millat» tushunchasi lotincha «natio» — qabila, xalq sifatida xristian dini

³ Qur'onu karim. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin. Man. –T.:Cho'lpon. 1992, 191 bet.

⁴ Фарҳангчабони тоҷики. (Аз асри Хто ибтидои асри ХХ.)2 чилд. 1чилд. Сов.энцикл. – М.: 1969, сах.689

bilan birga kirib kelgan bo`lsa, Osiyoga esa islom ta'limoti orqali yuqoridagi uch xil ma'noda kirib kelib singdi.

«Tarbiya» so`zi «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi bo`lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta'rif bermoq kerak. Arabcha «tarbiya», «tarbiyat» so`zlari 1) parvarish qilmoq; ta'lim bermoq; o`rgatish; odob o`rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko`rsatish: ko`z-quloq bo`lish; himoya qilish kabi ko`p qirrali mazmunga ega⁵. «Tarbiyachi» esa shu ko`p qirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi odam, demakdir. Demak, milliy tarbiyaning lug`aviy ma'nosini «yosh avlodlarni o`z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta'lim bermoq» da aniqlash mumkin.

Iudaizm, xristianlik, budda va islom dinlari — o`ziga xos tarbiya manbaidirlar. Shu nuqtai nazardan milliy tarbiyaning mohiyatini diniy unsursiz mukammal deb bo`lmaydi. Chunki har bir din, payg`ambarning vazifasi — odamlarni tarbiyalash, ba'zida esa, qayta tarbiyalashdan iborat bo`lib kelgan. Masalan, xristian pedagogik falsafasi «dindan ajratilgan ta'lim-tarbiya ma'naviyatdan ayrilishga, ta'lim-tarbiyadan ajratilgan din esa xurofotga aylanishga maxkumdir» deb hisoblaydi. Shu bilan birgalikda xristianlik ruhoniylari axloqiy qadriyatlarning e'tiborsizlana borishi tufayli «hamma narsani sotish va sotib olish mumkin» bo`lib qolganligi, «mening vatanim boshqa erda» deguvchi vatan taqdiriga befarqlik namunalarini, pornografiya tashkilotchilarini tanqid qilib, o`z hukumatlariga ma'rifiy yordam bermoqdalar»⁶.

Budda diniy ta'limotida ham odamlar orasida o`zaro hamkorlikka da'vat qilinib, milliyliklarga demokratik, tolerant yondashuvga amal qil, boshqalarning e'tiqodlarini qoralama, deyiladi. Budda dini o`ziga mansub kishidan o`z qobiliyatlarini mutanosiblashtirishni, intizomlilikni, xotirjamlikni, chiroyli so`zlab, chiroyli xulqqa ega bo`lishni, uyg`unlikni, o`zidagi Mara(salbiy kuch)ni chidam va hamdardlik orqali bartaraf qilishni, o`z-o`zini tarbiyalashni talab qiladi. Chunki «Inson yaxshilikning mohiyatini chuqur tushunib, his qilsagina, u yaxshilikka qodir bo`la oladi», deb uqtiradi buddizm falsafasi.

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildlik. 2-tom. M.: "Rus tili" nashr. 1991, 125-bet

⁶ И.Валентинов. Современная христианская педагогика на Западе. Педагогический вестник, 1992, № 2.

Milliy tarbiyani tadqiqot qilishning metodologik talablaridan biri — aniq fanlarda erishilgan yutuqlarni o`rganish, ularning mazkur tadqiqot predmetiga munosabatini umumlashtirishdir. Ana shunday fanlardan biri bo`lmish oliy nerv faoliyati fiziologiyasi va pedagogika orasida uzviy bog`liqlik mavjud. Zero, «har qanday ta'lim va tarbiya o`zining fiziologik mexanizmiga ko`ra, shartli reaksiya (organizmning tashqi ta'siriga javobi), ko`nikma va taassurotlarni hosil qilish jarayonidir»⁷.

Ma'lumki, birinchi signallar sistemasi inson hayotida katta ahamiyatga ega bo`lib, insonning ikkinchi signallar sistemasi uchun tabiiy manba bo`lib xizmat qiladi. Ikkinchi signallar sistemasi esa - bu biz eshitayotgan, so`zlayotgan, o`qiyotgan so`zlarimizdir. Ya'ni so`z bizga birinchi signallar sistemasining obrazlari, siymolari, xususiyatlari haqida mujassamlashgan xabar beradi. Masalan, o`quvchilar sohibqiron Amir Temurning ismi shariflarini eshitganlarida u kishiga hurmat hissini tuyadilar. «Orol» so`zi esa «Orol muammosi»ni eslatib ularda achinish, uni saqlab qolishda ishtirok etish istagini paydo qiladi va h.k. Xullas, o`quvchilar so`z orqali birinchi signallar haqida ma'lumot olgach, ularda hurmat achinish, rahm-shafqag yoki aksincha, «hizb ut-tahrir», «vahhobiylik», «aqidaparastlik» degan so`zlarni eshitganida ularda nafrat kechinmalari paydo bo`ladi. Demak, birinchi signallar sistemasi orqali hosil qilish mumkin bo`lgan xatti-harakat, his-tuyg`ularni ikkinchi signallar sistemasi — so`zlar orqali ham hosil qilish mumkin.

So`z esa milliy xususiyatga ega. Eshitilgan, o`qilgan so`z ma'nosi tinglovchi, o`quvchi tushunadigan tilda bo`lsagina u xatti-harakatga, tuygularga ta'sir qilib, milliy madaniy muhitni tushunishga, unga moslashishga xizmat qiladi. Agar so`z va uning milliy ma'nosi, mohiyati tushunarsiz bo`lsa, u o`quvchiga birinchi signal sifatida ham, ikkinchi signal sifatida ham ta'sir ko`rsata olmaydi. O`quvchi uchun ma'nosiz tovush bo`lib qolaveradi. Demak, ikkinchi signallar sistemasining so`zlar orqali namoyon o`lishini, inson milliyligining bosh belgisi — til, gil esa so`zlardan iboratligini, shuningdek, yuqorida kelgirilgan etnopsixologik yutuqlarni umumlashtirish ikkinchi signallar sistemasi milliy xususiyatga ega, degan ilmiy

⁷ А. Коган. Основы физиологии висшей нервной деятельности, Учеб.

xulosani hosil qiladi. Bu esa milliy tarbiyaning aniq fan - oliy nerv faoliyati fiziologiyasiga tayanuvchi nazariy asosini belgilaydi.

Xalqlar, millatlar o`zlari istiqomat qilayotgan jug`rofiy hudud, tabiat, jonzot va insoniy fazilatlarga xos va mos nomlar berganlar. Ular so`zda ifodalanib, ta'lim va tarbiya jarayonida o`quvchilarning ikkinchi signallar sistmasining milliy, xususiy jihatini belgilab kelgan. Ana shuning uchun ham tilda tadaffuz qilingan so`z faqatgina shu tilni tushunuvchi kishi uchun ikkinchi signallar sistemasi sifatida ta'sir qiladi, Bola, odam o`zi tushunmaydigan so`zdan ta'sirlanmaydi, harakatga kelmaydi, o`z xatti-harakatini o`zgartirmaydi.

O`zbekona tarbiya mazmunidan joy olib, o`zaro munosabatlarda namoyon qilinishi lozim bo`lgan insoniy fazilatlarni ifodalovchi so`z — signallar mavjud. Masalan, «tavoze», «hayo», «vijdon», «iymon» va boshqa so`zlarning faol qo`llanilganligi milliy ma'naviyatimizning yuksak cho`qqiga ko`tarilganligidan dalolat beradi. Lekin xalqimiz tarixining keyingi asrlarida sodir bo`lgan mustamlakachilik, milliy fazilatlarni «qoloqlik, madaniyatsizlik ko`rsatkichi», «eskilik sarqiti» deya qadrsizlanishi yuqoridagi tushunchadarni o`zbek maktabi darsliklari matnidan siqib chiqardi. Natijada, milliy fazilatlar o`quvchilarning ikkiichi signallar sistemasiga kiritilmaganligi tufayli, boshqa tildagi so`zdek tushunarsiz bo`lib qolaverdi. O`quvchilar bilan o`tkazilgan suhbatlar, savol-javoblar buni tasdiqladi. Qo`shimcha misod tariqasida atoqli yozuvchimiz Ibrohim Rahimning 80-yillardagi kuzatuvlaridap bir parcha keltiramiz; «... Ko`pgina yoshlarimiz «insof» nimaligini bilish u yoqda tursin, bu so`zning o`zini ham bilmagandek, tushunmaydilar.

Eski hovlimizning ro`parasidagi o`rta maktabning to`polonchi o`quvchisi o`zidan kichik bolani do`pposlaganida qo`lidan ushlab, «Insofing bormi, o`zingdan kichik bolani urasanmi?» desam, «Insof deganingiz nima?» deb anqayib qoldi. Shundan keyin boshqa bir necha boladan ham so`radim, Unaqa dars o`tganimiz yo`q, deb javob qildilar. Shu voqeadan keyin maktablarda insof darsini o`tish kerak shekilli, degan xulosaga keldim.

O`tmishda ajdodlarimiz qanday fazilatlariga ega bo`lgan farzandni orzu qilishganini anglash uchun xalqimiz uzoq tarix davomida yaratgan afsona, ertaklar, dostonlarga murojaat qilish kerak. O`zbek xalq og`zaki ijodiyoti namunalarida tarannum qilingan vatanga muhabbat, erkparvarlik, g`ururlilik, sadoqatli (jon do`sti) do`st bo`la olish, o`z burchini, o`z so`zini oqlash, mardlik, jasoratga qodirlik eng zarur fazilatlar bo`lgan. O`zbek olimi, professor Y. Jumaboevning qayd qilishicha, ajdodlarimiz « ... o`z burchini ado etish, dushman ustidan g`alaba qilish. yo`lida qahramonlarcha o`z jonlaridan kechishga, har qanday mashaqqatlarga bardosh berishga, sevgi, muhabbatdan kechishga, o`z qabiladaglarining or-nomusi uchun to oxirigacha kurashishga shay»⁸ turganlar.

Ajdodlarimizda milliy vatanparvarlik fazilatining qanday namoyon bo`lganligini sak qabilasiga mansub cho`pon Shiroqning eramizdan avvalgi 519 yilda ko`rsatgan mashhur jasoratidan bilish mumkin. Grek tarixchisi Gerodot shoh Droniig O`rta Osiyoga qilgan hujumi haqida hikoya qila turib, Shiroqning mingboshi Ranosbatga qarata aytgan quyidagi so`zlarini keltiradi:

« — Men galaba qildim, chunki saklarni, mening yurt- doshlarimni sizlarning hamrangizdan sakdash uchun men siz forslarni ochlik va chanqoqlik azobiga muhtalo etib, holdan toydirishga muvaffaq bo`ldim»⁹.

Markaziy Osiyo xalqlari hayoti, madaniyati, urf-odatlar orasida tarixiy umumiylik mavjud. Demak, mazkur umumiylik ushbu xalqlar orasida tarbiyada ham umumiylik mavjud bo`lganligini ko`rsatadi. Bu haqda islomgacha davr madaniyati tarixi, qadimiy yozma obidalar: Avesto, O`rxun-Enisey yozma obidalar, manixeylik, mazdakizm kabi oqimlar ta`limotlarini o`rgangan olimlarning ilmiy xulosalari mavjud. Avestoning eng eski qismlaridan biri «Yasna»da chorvadorning adolatli, oqil va hurmatga sazovor bo`lishi maqsadiga etkazishini e`tiqod darajasiga ko`tarishgan. Lekin qo`lida qurol bilan, zo`rlik ishlatib, yaylovlarni er bilan yakson qilib, merosga kolgan mol-mulkini talon-toroj qiluvchi ko`chmanchilarni manfur dushman hisoblaganlar. Natijada, qadimgi ajdodlarimiz nazdidayoq adolatsizlik natijasida

⁸ Y. Jumaboyev. O`rta Osiyo etikasi ocherklari. — T.: «O`zbekiston», 1980. 19-bet

⁹ Геродот. История в евяти книгах. - Л.: «Наука», 1972, с.89.

«biz» — ular» (bosqinchilar) antitezasi paydo boʻlgan. Bu esa oʻz navbatida yosh avlodlarda vatanparvarlik, millatparvarlik, fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantirishni qabilaviy tarbiya vazifalariga aylantirgan.

Ajdodlarimiz farzand tarbiyasining negizi sifatida axloqiy uchlik: oʻy-niyat-soʻz-ish birligini yaratishgan. Mazkur uchlik negizini keyinchalik lugʻatimizga kirib kelgan «vijdon» soʻzi bilan ham ifodalash mumkin. «Men Yaxshi niyat, Yaxshi soʻz va Yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman». — deb yozilgan «Yasna»da. «Yaxshi fikr deganda... yaqin kishisiga mehribon boʻlish, muhtoj va xavf-xatar ostida qolganda koʻmaklashishga shaylik, yovuzlikka qarshi, kishilar baxt-saodati uchun faol kurashishga shaylik, hamma bilan ahil va totuvlikda, oʻz maelakdosh birodarlari bilan doʻstlik va hamkorlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushuniladi. Inson oʻz fikri-xayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim, yaxshi niyatli kishi dargʻazab boʻlmaydi va boshqa jaholatlarga berilmaydi, chunki bunday holatida yaxshi niyatini yoʻqotadi, burch va adolat haqida unutadi va nojoʻya harakatlar qiladi», — deb hisoblangan.

Bu axloqiy fazilatlar kishini elga qoʻshilishga, el bilan birga boʻlishga, elning tashvishi bilan yashashga tayyor turuvchi xalqparvar kishini tarbiyalashga qaratilganligi oʻz-oʻzidan koʻrinib turibdi. Zamonlar oʻtib, odamlar orasidagi munosabatlarning boyishi, savdo-sotiqning yuzaga kelishi bilan qabilaviy tarbiyaga qoʻyiladigan talablar ham oʻzgarib, zamonaviylasha bordi. Ajdodlarimiz oʻzlaridagi xislatlarning nafaqat Xudo tomonidan ato qilingan, balki shakllantirilishini tobora chuqurroq ilgʻay bordilar. Jumladan, Yaxshi soʻzlar — ahdga vafodorlik, berilgan vaʼdani oqlash, hamma oldi-berdilarda halol boʻlish, oʻzgalarning haqini emaslik, buzuqlikdan oʻzini toʻxtata bilish kabi yangi sifatlar bilan boyiy bordi.

Ajdodlarimizning koʻhna tarbiyaviy tizimi hozirgi kunlarda biz toʻqnashgan axloqiy, madaniy, jismoniy, ekologik muammolarni bartaraf qilish nuqtai nazaridan bebahodir. Zoroastrizm axloqli kishining sogʻ-salomat, kuchli boʻlishi kerakligini uqtirish bilan birga uning maʼnaviyatiga asosiy eʼtiborni qaratgan. Jumladan. ayol kishiga hurmat, uni eʼzozlash, ona sifatida qadrlash gʻoyalari markaziy oʻrinlardan

birini egallagan. Demak, bu g`oya yosh avlodga kundalik turmushda, yaxshi bolaning namunaviy siyмосi orqali ijtimoiy tarbiyada izchil singdirib borilgan.

Markaziy Osiyoda islom ta'limotining tarqalishi nafaqat diniy, balki axloqiy, ta'lim-tarbiya sohasida ham katta burilish yasadi. Ajam mamlakatlari xalqlari, sunniylikning hanafiya mazhabi tarkibida o`z milliy an'analarini shariat aqkomlari bilan uyg`unlashtirdilar.

Arablar VIII asrda o`lkamizga islom ta'limotini — yangi diniy tarbiya mazmunini ham olib keldilar. Xususan, Qur'oni karim ota-ona, farzandlik burchi haqidagi oyatlari bilan katta pedagogik ahamiyatga ega. Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, islom dini Arabistonda yoyilishidan ilgari farzandlarning ota-onalariga bemehrligidan, beoqibatligidan ko`plar jafо chekkanlar. Bu hol o`sha davr shoirlari ijodida ham aks etgan. Qariganda farzandlari tomonidan qarovsiz qoldirilgan ota so`zi¹⁰

Qarigan otangizni qilib yod nega ko`rmaysiz,

Yoki do`st payg`omi birla xasta holimni so`rmaysiz.

Umidim qolmadi zarra nuroniylikka etmakka.

Borib ayting, ajal kelsin, olib jonimni ketmakka.

Qur'oni karimdagi, hadislardagi ota-ona, farzandlarning ota-onalari oldidagi qarzlari haqidagi ibratlar barcha musulmonlarga farzandlarini oqibatli qilib tarbiyalashni farz qildi.

Movarounnahrda machitlar ochilib, imomlar o`g`il bolalar uchun maktablar tashkil qila boshladilar. Turkiy til yangi so`z — «maktab» (ar. «yozuv o`rgatiladigan joy») bilan boyidi. XII asrdan boshlab islom dini turkiy tillarda yozilgan she'rlarda - Ahmad Yassaviyning «Hikmat» to`ilami, keyinchalik So`fi Olloyorning ikki to`plamida va boshqa to`plamlarda ommalashtirila borildi.

Madrasa va maktablarga dunyoviy bilimlar kirib kela boshladi. Bunga Qur'oni karimning «Har bir musulmon va musulmaning ilm olishi farzdir», — degan oyati asos bo`ldi. Buning natijasi o`larоq, Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar qomusiy bilimlarning yuksak cho`qqilarini egalladilar.

¹⁰ Этикет у народов Псредней Азии, — Гл. редакция Вост. л-рм, изд. «Наука», 1988, с. 42.

- Markaziy Osiyo XIV—XV asrlarga kelib sohibqiron Amir 'Gurning vatanparvarona fidoyiligi tufayli mo`g`ullar istibdodidan qutuldi va mustaqil davlatga ega bo`ldi. Natijada mamlakatning madaniy hayotida keskin yuksalish yuz berdi. Amir Temur — yirik davlat va siyosat arbobi, sarkarda, qonunshunos, iste'dodli me'mor, notiq, ruhshunos bo`lig`i bilan birga Turkistonni jahonga mashhur qilgan milliy g`ururli, so`zi bilan ishi bir, vatanparvar inson — buyuk shaxs edi. Uning nomi bilan boshlangan «Temuriylar madaniyati» o`ziga xos «Temuriylar tarbiyasi»ni yaratdi. Navoiy, Ulugbek. Bobur kabi ulug` zotlar ana shu tarbiyaning natijasi — mevasi bo`ldilar.

Bu davr pedagogik qarashlarida odil, ma'rifatparvar podshoh g`oyasi etakchi o`rinni egalladi, ya'ni aqlli va ma'rifatli hukmdorgina xalq hayotini tubdan ijobiy o`zgartirishga qodirdir. Temuriylar davridagi singari madaniyatga havas qo`ymoq islom olamining boshqa bironta joyida sodir bo`lmadi (Andalusiya ummaviylar davlatining porloq davri va Arabistondagi abbosiylar hukmronlik zamonini istisno etganda). Sharqning «Allonnos oli dina malxakum» (Xalq o`z podshosining diniga ergashadi) qoidasi xotiraga olinganda, bu holning ajab-yasharli joyi qolmaydi. Temuriylar davrida barcha san'atlar qatori raqs san'ati ham kamol topdi. Bu esa milliy nafosat tarbiyasiga berilgan ahamiyat, homiylikning ko`rsatkichidir. «Islom Osiyosining hozirgi ahvolidan xabardor kishilar uchun temuriylar davrida raqqoslar bo`lgani tag`in ham taajjublidir. Boburning bayoniga qaraganda, o`sha zamonda raqqoslarning birinchisi saidlardan (payg`ambar naslidan) Bahr ismlik bir kishi bo`lib, raqqoslik san'atidan g`oyat mohir ekan. Uning shaxsan bir VII bir necha raqslarni ijod etgan. Agar hozirgi bir musulmon boshiga katta salla o`ragan birovning raqs etayotganini ko`rsa, qanchalik dahshatga tushar edi»¹¹, — deb yozadi X Vamberi.

Temuriylar tarbiyasini olgan Mir Alisher Navoiyning buyuk dahosi har bir mo`min musulmon kishiga farz bo`lgai fazilatlarga munosabatida ham namoyon bo`ladi. Ulug` mutafakkir o`z asarlari orqali ayrim zamondoshlariga hos bo`lgan

¹¹ H. Vamberi. Buxoro yohud Movaraunnahr tarixi. T'.: «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1990, 75-ber.

salbiy sifatlarni ham g'oyat ta'sirli tasvirlab, undan qochishga, yaxshi sifatlarni egallashga undaydi. Alisher Navoiy o'z ijodida munosabat bildirgan insoniy sifatlarni ikki guruhga - ijobiy va salbiy sifatlarga bo'lish mumkin: ijobiy sifatlarni — tavba, muruvvat, vafo, hayo, iymon, hilm (muloyim tabiatlilik), jon do'sti bo'la olish, sabrlilik, tavoze', odob saqlash, xoksorlik, qanoat va boshqalar: salbiy sifatlarni — xasislik, nokaslik, birovlarni kamsitish, engiltaklik, razillik, tamagirlik, takabburlik, nafs ketidan tushmoq, erkaklarning o'z-o'zini ko'z-ko'z qilish uchun yasangan, o'ziga bino qo'yimoq, shahvoniy nafsga berilmoq, xudbinlik, himmatsizlik, maqtanchoqlik, isrofgarchilik, chaqimchilik, ikkiyuzlamachilik, tama, hasad, ichkilikbozlik, bangilik, nashavandlik, g'iybatchilik, bachkanalik va h.k.

«Mahbub ul-qulub»da Navoiy tavoze' — odob saqlash, xoksor bo'lishlik tushunchasiga aloqda o'rin ajratadi. Tavoze' yaxshilikning tarkibiy qismi va takabburlik, manmanlikning aksi bo'lganligi tufayli Alisher Navoiy odamlarni tavozeli bo'lishga chaqirib, unday kishiga xatq mehrining oshishi, do'sti ko'p bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Demak, xushtavoze' kishi boshqa millat vakillari bilan ham o'z munosabatlarini mehribonlik asosiga qurishi tufayli samimiy do'st bo'la oladi. Alisher Navoiy «hamma ta'limotlarda va hamma millat kishilari qoshida «yaxshilikka yaxshilikdan ziyoda mukofot yo'qligi isbotlangan»ligini XV asrdayoq e'tirof etdi. Chunki

Ko'ngilni olsa malohat bila, tafovut yo'q,

Xitoyi o'lsinu, yo armani va e hindu.

Navoiyning zamondoshi Jaloliddin Dovoniyning (1427—1502) «Ruhiyat haqida kitob», «Bolalarni tarbiyalash usullari», «Istaklar axloqi» asarlari ilmiy pedagogikaga samarali ta'sir ko'rsatdi. Abdulla Avloniy, Abu Tohir Samarqandiylar pedagogik qarashlari Dovoniyning pedagogik qarashlari ta'sirida shakllandi. Dovoniy bola tarbiyasida o'zidan oldingi qarash — odamning taqdiri «oldindan peshanasiga yozib qo'yilgan, uni o'zgartirib bo'lmaydi», degan qarashga o'zgartirish kiritdi. U bola tarbiyasida muhitning tutgan o'rnini asoslab berib, bola fe'l-atvorini tarbiyaviy muhitni o'zgartirish orqali o'zgartirish mumkin, degan fikrni bildirdi. Xullas, Jaloliddin Dovoniy «bola qalbi go'yoki toza taxta, unga tarbiya yordamida istalgan

shaklii chizish mumkin», — degan metodologik fikrni Jon Lokkdan qariyb 200 yil ilgari aytgan edi.

«Boburnoma» — yirik qomusiy asar. Bitiruv malakaviy ishni bajarish mobaynida bu asarni XVI asrda mavjud boʻlgan milliy pedagogik madaniyatimizning koʻzgusi deb atash mumkin. «Boburnoma»dagi personajlarga muallif tomonidan berilmish sifatlar oʻsha zamon turkiy tarbiyasidagi yutuq va kamchiliklarning ramziy hujjati, deya ularni qayd qilamiz:

Ijobiy sifatlar — pokiza eʼtiqodlilik, ravon savodxonlik, saxovatlilik, xushxulqlik, shirinzaʼbonlik, shujoʻ va mardonalik, xushsuhbatlik, merganlik, odillik, hayolilik, shatranjni yaxshi oʻynash, qush ilmini xoʻb bilish, musiqiy ilmidin boxabarlik, saxiylik, siyoq ilmini xoʻb bilish, odmi va asillik, tolibi ilmlilik, lugʻati boylik, adolatpeshalik, xushtaʼblik, fazilatlilik, sheʼrxonlik, gʻijjakni pokiza chalmoq, qilichga mardonalik, hikoyati shirinlik va hokazo. Salbiy sifatlar — mushtazanlik, pursharoʻlik (gʻavgʻo chiqaruvchilik), emoqda betakalluflik, benamozlik, roʻza tutmaslik, zolimlik, kofirvashlik, ichi torlik, kamhafsasalik, fitnachilik, baxillik, sovuq yuzlilik, qattiq soʻzlilik, oʻqimaganlik, omilik, koʻp ichish, yuraksizlik, shurb (ichkilikbozlik) va zino bilan mashgʻul boʻlish, befahmlik, ayshga mashgʻullik, padarqushlik, tanballik, kajxulqlik, berahmlik, sharirlik (odamlarga zarar etkazish), nozuk maraklik, uyda bemajlislik, besuhbatlik va hokazo¹².

XVII asrda otashnafas shoir Boborahim Mashrab ijodida ham «Na malakman, na farishta, men ham odam naslidin», — degan gʻoya va «millat» istilohi paydo boʻlganini koʻramiz.

Yoʻl — xatar, manzil — uzoq tushti, bu umrim kam mani,

Goh moʻmin, goh orif, goh tarsoman bukun.

Hech bilmasman oʻzumni, qaysi millat xalqiman,

Goh vosil, goh mahjur, goh gumrohman bu kun.

Milliy tarbiya tizimining oʻtkir vositalaridan biri — har bir kishining oʻz ajdodlari tarixini bilishi lozimligi va shunga ilk yoshlardan oq bolalarning oʻrgatila borishi edi.

¹² Bobur .Boburnoma. — T.: «Yulduzcha», 1990.

«Turk va tojikda barcha odam farzandi ichinda rasm turar, etti otani sanad qilmoq. Turk xalqi aytur, etgi orqadan beri temurchiman va yo ayturki, mening etti otam shu yurtda o'tgandur» — deb yozadi «Shajarai turk» muallifi Bahodirxon Abdulg'ozixon. Xorazm tarixining 1644—1664 yillar soqibi bo'lgan Abulg'ozixon o'zidan bog'ilib to Odam Safiullohgacha «otasini otasi faloncha», — deya nomma-nom bayon qiladi. Bu misoldan ilgari ajdodlarimiz etti ota naslini batafsil aytib bera olganliklari ayon bo'ladi. Ajdodlar yodi har bir kishining o'zligini anglatib, ajdodlar nomiga dog'tushiruvchi xatti-harakatlardan saqlab, yaxshilik, olijanoblikka chorlab turgan.

O'zbekona tarbiyaning turli qirralari ulkan adiblarimiz Abdulla Qodiriy, Oybek, Pirmqul Qodirov va boshqalarning tarixiy asarlarida muvaffaqiyatli aks ettirilgan. Abdulla Qodiriy tomonidan «O'tkan kunlar»ning «o'zbeklar turmushidan tarixiy rumon» deya aniqlashtirilishi ham adibning milliy zaminda qat'iy turgan yozuvchi ekanligining misolidir. Asarning milliy tarbiyaviy mohiyatini atoqli olim M. Qo'shjonov shunday bayon qiladi: «A. Qodiriy o'zbekni o'zbekday ko'rsatdi. Bir zum u yaratgan etakchi obrazlar — Otabek, Kumush, Anvar yoki Ra'no xarakterlari tasvirlangan muhitni o'zgartirib, ularni boshqa nom bilan atab ko'ring. Birinchidan, muhit yot bo'lib, nomlari mos tushmaydi, Marg'ilonni Sibir yoki Abdullani Ivan degandek; ikkinchidan, qanday muhitda ko'rsatmang va qanday nom qo'ymang, ular faqat Sharq, ya'ni o'zbek farzandlari ekani ko'rinib turadi».

O'zbek milliy tarbiyasi tarixining XIX asriga kelib an'anaviy ravishda Ahmad Yassaviyning «Chor kitob»ini, Vafoiyning «Ravnaqul islom»ini, So'fi Olloyorning «Haftiyak»ini va boshqalarni o'rganib kelgan maktab ta'limi mazmuniga Mahmudxo'ja Behbudiyning «Kitob ul-aftol», Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval», Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq», Abduqodir Shakuriyning «Jome-ul hikoyat» va Rizouddin ibn Faxruddin, Faxrul Banot, Ali Nozimo va boshqa mualliflarning asarlari kirib keldi. Bu esa maktablarga yangi, o'z davrining tarbiyaviy ruhini kiritdi.

Azaldan o'zbek qizlari tarbiyasi bilan onalar shug'ullanishgan. Farg'onada bundan bir asr ilgari o'zbek qizlari tarbiyasi qanday namoyon bo'lganligi haqida qiziqarli xotiralar bor. «O'zbek qizlari ilk yoshlardan boshlaboq o'z hatti-harakatlaridan

xabardor, o`z-o`zini nazorat qila boshlaydi. Garchi u tez, elib-yugurishni istasa-da, diniy adablilik unga shaxdam qadam tashlash, qo`llarini siltab yurishga yo`l qo`ymaydi... Ana shu sipoyilik, vazminlik yulgilari uning axloqiy «men»ining namoyon bo`lishida ham ko`rinib turadi. Ko`pchilik qizlarda o`z taassurotlarini nafislab va qosh harakatlari orqali bildirish ba'zi hollarda yuksak mukammallik darajasiga ko`tarilgan» (I. Nalivkin). O`zbek oilalarida qizlarni milliy tarbiyalashning namunaviy misollari sifatida Abdulla Qodiriy tavsifidagi Kumush va Ra'nolarni keltirishning o`zi kifoyadir.

O`zbek xalqi uzoq tarixi davomida ko`plab marosimlar yaratib, ularni milliy odob va muomalaning umumlashgan me'yor va tamoyillari sifatida avlod-dan-avlodga etkazib, jamoatchilik fikri bilan qo`riqlab, takomillashtirib keldi. Sunnat, nikoh to`ylari, hashar, motam marosimlari va boshqa ma'rakalar bolalarda vatanparvarlik, milliy odob, vijdoniylik, elsevarlik fazilatlarining shakllanishiga, chiniqtirilishiga kuchli vositalar bo`lib xizmat qildi.

Ma'raka-marosimlarning milliy tarbiyaviy imkoniyatlari ularda qatnashuvchilarning turli yoshdagi ijtimoiy, kasbiy guruhlardan tashkil tonishi: muloqotlardagi ixtiyoriylik (bir-biriga bevosita bog`liq emaslik); er-kinlik; yoshi ulug`, muhtaram kishilarga nisbatan hurmatning yaqqol namoyon bo`lib turishi; muloqot mavzularining rang-barangligi; marosimlarning shaxs xulq-atvorining ommaviy nazoratchisi sifatidagi xususiyatlarida namoyon bo`ladi. Bu xususiyatlar yoshlarning yoshi ulug` kishilar bilan ma'nan birligini — milliy g`ururini mustahkamlaydi, o`z turar joyi, mahallasi, qishlog`idagi kishilar to`g`risidagi tasavvurlarini kengaytiradi, tevarak- atrofdagi muhitga diqqat bilan qarash malakalarini tarbiyalaydi, avlodlar orasida an'nalarning uzviyligini tashkil etuvchi bo`g`in bo`lib xizmat qiladi. Masalan, milliy-ma'naviy madaniyat ko`rsatkichlaridan biri — motam marosimlari to`igu paytgacha «reaktsion diniy marosim» degan dahriy munosabat tufayli tarbiyachilar nazaridan chetda qolib keldi. O`lim — haq, motam marosimi ob'ektiv voqelik ekan, ularta munosabat o`zgartirilishi kerak. Chunki,

Ey do`st, ibrat oluvchi ko`z bo`lsa senda,

Ko`shni o`limi yorqin misol-ku bunda.

Husayn Voiz Koshifiy

Motam marosimlari unda qatnashayotgan barcha kishi- larni ota-ona, qavmu qarindoshlar qadriga o`z vaqtida etish kerakligiga, ularni ranjitmaslikka, qariganda tayanch bo`lishga, o`zining va birovlar umrining qadriga etishga undovchi vosita, o`rnak ekanini tan olmoq kerak. Qolaversa, o`smirlar marosimlarda qatnashib, ta'ziyaga borishning milliy odobi: kam gapirish, ortiqcha faryod qilmaslik, bema'ni gaplardan tiyilish, motam egasiga sabru qanoat tilash, qo`lidan kelguncha yordam berish odatlarini kuzatadilar, o`rganadilar.

Milliy tarbiya jarayonini «yashash darsi»ga qiyoslash mumkin. Ana shu darsdan «a'lo» baho olish uchun inson bobolar hikmatlarini, xalq maqollarining mazmunini chuqur anglashi kerak bo`lgan. Bobolar hikmatini shoir

E. Vohidov «Insofli odam bexosdan toyib ketsa, biror tayoq suqib, ey yo`lovchi, ehtiyot bo`l, bu erda chuqur bor, ko`zingga qara» deya qilgan ishora — tayoqchaga; boshqalarni o`ylab ochilgan buloq, ekilgan daraxtga; o`zlaridan keyin keluvchilar ham imopli, ilm-ma'rifatli bo`lsinlar deb, ellar, yurtlar o`rtasida yaxshi bordi-keldilar bo`lsin deb solingan masjid, madrasa, yo`l, ko`prik, karvonsaroylarga o`xshatadi. Shoir «o`zbekman» degan har bir insonning o`z yurti kechmimsh na hozirini mukammal bilmog`ini, o`z ona tilining chargari bo`lmog`ini istaydi. Darhaqiqat, o`zbek xalqining asrlar davomida «yashash darsi»dan go`pdangan boy tajribasi ko`plab maqollarda o`z aksini gopgan. «Har gulgint o`z isi bor, har elning o`z tusi bor» deganlaridek, maqollarimiz xalqimizning turmushi, urf-odatleri, an'analari va eng muhimi o`zbek bolasining qanday kishi bo`lishi va qanday bo`lmasligi kerakligi haqida ibrat va o`rnaklar jamlangan ma'naviy, madaniy merosdir.

XIX asrning ikkinchi yarmidan o`zbek xalqi milliy madaniyati, ma'naviyati taraqqiyotida mustamlakalik davri boshlandi. Chor Rossiyasi o`zining mustamlakachilik siyosatida Turkistonni nafaqat siyosiy, iqtisodiy, balki ma'naviy mustamlakaga aylantirishning rejasiga ega edi. Buni ularning o`zlari ham yashirmas edilar. Bu haqda M. A. Muropiev 1882 yil 30 avgust kuni Toshkent o`qituvchilar seminariyasidagi yig`ilishida «Musulmonlarimiz maorifining asosida ularni ruslashtirish... islomni buzish ... umuman diniy jihatlarni buzish... yotmog`i lozim»□

degan bo`lsa; Turkiston general-gubernatori I. A. Kuropatkin esa kundaliklarida «Biz 50 yil tub- joy aholini taraqqiyotdan chetda tutdik», — deb qayd etgan edi .

Xo`sh, milliy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy, pedagogik turg`unlik o`zbek millati hayotida qanday aks etdi? Eng avvalo, milliy o`zlikni anglashning, milliy tashabbuskorlikning, millatdagi yaratuvchilik quvvatining sezilarli so`ndirilganligida, ilm-fan jabhalarida orqada qolish, xabarsizlikda (Fitrat) namoyon bo`ldi. Bu haqda Ishoqxon Junaydullaxo`ja o`g`li Ibrat (1862—1937) shunday yozgan edi: «Ilmiya to`g`risida biz xalqda chandoni ahamiyati yo`q, tanazzulda turur, bo`lak firqalarni ilmdan topgan daraja va madaniyatlarini ko`rib turub hech harakat qilmaydurlar. Ilmni asosi maishat ekanini tahiqlik bilan bilganlari yo`q! Bu sababdin omillari ko`b, ishlarida ahamiyati yo`q, tavakkul bilan qorinlari to`q!... Avlodlari o`yin-kulgiga mashg`ul bo`lib, umrni arzon o`yunga sarf etub, bovujudi bu mamlakatga joidor, musofir bo`lmasalar ham musofirlaridan maishatda noqisidurlar. Va aksar aholisi qarz balosiga muhtalodurlar. Shoyad mundin buyon saodat va fazilat qadri bilsalar!» Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, Kobul, Jidda, Bombay, Kalkutta shaharlarida bo`lib va yashab, arab, fors, ingliz, hind, urdu tillarini bilgan Ibrat mavjud ahvolni tuzatish maqsadida 1907 yilda To`raqo`rg`onda yangicha usulda maktab, bosmaxona ochgan edi. U arab, fors, hind, turk, o`zbek va rus so`zlaridan tarkib topgan «Lug`at sitta alsina» (Olti tilli lug`at, Toshkent, 1907) tuzgan. Lotin, yunon, slavyan, xitoy, hind, arab yozuvlarining kelib chiqishi haqida «Jome' ul-xutut», «Ta'rixi Farg`ona» (1916), «Ta'rixi madaniyat» (1925) kabi ilmiy asarlarini chop etdi. Ibrat o`lkamiz tarixida yorqin iz qoldirgan milliy-ozodlik, zamonaviylikni shior qilib olgan jadidchilar vakili edi.

Milliy yangilanish, zamonaviylashish g`oyasi Turkistonda XIX asr oxirida milliy-ma'rifiy kurash shaklida namoyon bo`ldi. Bu harakatning maqsadi «Yangi usulda g`alim va tarbiyani Ovrupo sivilizatsiyasiga moslashtirish emas, balki Ovrupo sivilizatsiyasini o`rganib, uni milliy madaniyatga xizmat ettirish»niig bir ifodasi edi. Turkistonlik jadidchilar o`lka istiqlolining ma'rifiy shartini, avvalo, yosh avlodni zamonaviy Ovrupo ilmlari darajasida o`qitish bilan milliy tarbiyalashni uyg`unlashtirishda, deb bildilar. Ana shu maqsadda Farg`ona vodiysida, Samarqand,

Buxoro shaharlarida usuli jadid maktablari ochildi. Bu haqda «Ma'rifatchidar o`zlikni anglashni milliy tarbiyada juda yuqori o`ringa qo`yadilar. O`z millati, o`z vatani, o`z davlati — mana shular shaxsni shaxs qiladi, shaxsni mana shu millatning bir orif parchasiga aylantiradi. Va mana shular millatga millat unvonini beradi»¹³, — deydi keyinchalik zamondoshimiz Ibrohim G`afurov.

Biroq Turkistonda jadidchilikka keskin qarshiliklar bo`ldi. Bunga sabab, bir tomondan, ularning maqsadini to`g`ri tushuna olmagan Buxoro amiri, ikkinchi tomondan, jadidchilardan inqilobiy harakat deya cho`chigan Rusiya amaldorlari bo`lsatar, uchinchidan, jadidchilikni islomga dushman bir harakat deb tushungan, uning asl mohiyatini anglashni istamagan mutaasib dindorlar edi. Mutaasib ruhoniylar yoshlarni milliy-zamonaviy tarbiya yo`li bilan mustamlakachilikdan ozod qilish maqsadiga intilgan jadidchilar — Mulla Nafas, Zinhoriy, Avliyoquli, Misikin, Ibrat, Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvar qori, Zohiriy, Tavallo, Fitrat, Cho`lpon, Avloniy, Hamza, Ayniy, Qodiriy va boshqa ma'rifatparvarlarni kofir deb e`lon qildilar. Bu haqda Fitrat: «Yo rabbiy, qo`ldan ketgan madaniyatimizni tiklashga harakat qilgan zahotimiz ulamolarimiz «kofir bo`lding» deb, bizni yo`q qilish payiga tushadilar», — degan edi. Holbuki, jadidchilar o`zbek milliy madaniyatini, ta'dimtarbiyani rivojlantirish yo`dida zahmat chekkan va:

Har kun o`luram shomgacha g`amga giriftor,

Har shab yonaram otasha parvona kabi zor.

Hech kimsa emas meni ahvolima voqif,

Men xastayamu millatim o`lmish nega bemor?

(Abdulla Avloniy)

deya amaliy choralar qidirgan vatanparvarlar edi.

Tashqaridan ko`rsatilgan harbiy, siyosiy, madaniy xurujlar — arab, mo`g`ul, Chor Rossiyasi bosqini va sovet davri o`z izlarini qoldirgan bo`lsa-da. o`zbek xalqi milliy o`zligini saqlab qola oldi. XX asr oxirida ham «O`zbek xalqining o`z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, milliy xarakteri, milliy tuyg`usi, mijozi (temperamenti), xulq-

¹³ Isoqxon to`ra Ibrag. Tanlangan asarlar. - T.: «Ma`naviyat», 2005 y.

atvori, bilish jarayonlari, qobiliyatining aniq yo`nalishga qaratilganligi, ehtiyoji va qiziqishlari, milliy ongi o`ziga xos xususiyatlarga egadir»□, — deb xulosa qilmoqdalar vatandosh olimlarimiz, psixologlar H. Uzoqov, E. g`oziev, A. Tojievlar. Ular ushbu o`ziga xoslik milliy madaniyatda, milliy adabiyotda, milliy ruhiy (ma'naviy) hayotda ifodalanishini qayd etdilar. Olimlar o`zbek xalqi ruhiyati, fe'l-atvoridagi umumiy o`ziga xosliklar, deb quyidagi sifatlarni qayd qilishdi: andishalilik, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, mehmon kugishdagi samimiylik, inoqlik, inson qadrini yuqori tutish, iffatlilik, o`zaro yordam, vijdoniylik va boshqalar. Shuningdek, go`zallikni tushunish, san'at, adabiyot, tasviriy san'at turlari, tili, bayramlari, pazandaligi, maqollari, qomat tutishi, kiyinishi, ibosi, imo-ishoralari, tabassumi, uyqusi, xayoloti, ta'zimi, marosimlari, xalq ijodiyoti, ta'bi, didi va boshqalarda an'anaviy «o`zbekchilik» aks etib turadi. Buning bosh sababi — tarbiyaning ana shu xususiyatlardan kelib chiqishida, ya'ni milliy madaniy mohiyatga egaligidadir.

O`zbek xalq milliy tarbiyasining yuqorida keltirilgan tarixiy-pedagogik talqini bizga quyidagi xulosalar yasash imkonini beradi:

— o`zbek xalq milliy tarbiyasi tarixi turkiy qabilaviy, urug` va elatlar tarbiyaviy tazimlarining tadrijiy umumlashuvi, rivojlanishining tarixi demakdir;

— qabilaviy, milliy tarbiya nuqtai nazaridan insonning qandayligi undagi so`z, niyat (fikir) va ish birligiga tayanuvchi uchlik asosida baholangan;

— islom dini Markaziy Osiyo xalqlarining millatlararo muloqot madaniyatining umumiy manbasi, umuminsoniy-birlashishga yo`naltiruvchi tarbiyaviy omil vazifasini bajardi va bajarmoqda;

Milliy tarbiya maqsadini yanada muayyan, zamonaviy talqin qilish uchun O`zbekiston Respublikasi xalq deputatlari sessiyalari materiallari; Prezident va Vazirlar Mahkamasi chiqargan farmonlar, qarorlar; mustaqil O`zbekiston Konstitutsiyasi; O`zbekiston milliy istiqlol mafkurasining ilmiy asoslari; respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy talablari ifodalangan davlat hujjatlari, shartnomalari o`rganildi. Maqsad — yuqorida zikr etilgan xujjatlardan O`zbekiston pedagogikasi bilan bog`liq mazmupni aniqlab olmoqedi. Maqsadli ma'lumot qidiruv

oldiga «Xalqimiz va davlatimiz milliy tarbiyaning maqsadi, usullari, shakllari, vositalari, natijasini qanday tasaviur qilmoqda?», «O`quvchilar xarakterida qanday sifatlarning mujassam bo`lishini istaydi va qaysi sifatlardan norozi?» kabi muayyan pedagogik savollarga javob olish vazifa qilib qo`yildi. Maqsad — xalqimizning pedagogik tafakkuridagi tarbiyaviy maqsadni anglab, uni ilmiy pedagogik nazariya bilan uyg`unlashtirish va shu orqali nazariya va amaliyotning, tarbiya va hayotning birligiga erishish edi.

Mustaqil O`zbekistonda yuqoridagi savollar va maqsadga javob beruvchi qudratli manba barpo qilindi. Bu — O`zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi bo`ldi. Galdagi vazifa — mafkuraning milliy asoslariga milliy tarbiyaning ilmiy asoslarini uyg`unlashtirish edi. Chunki «milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo`lga qo`ymoq kerak» (I. Karimov)ligi davlat ahamiyatiga molik zaruriyatga aylangan edi. Shu tariqa milliy tarbiyaning milliy mafkura bilan uyg`unligiga erishish quyidagi yo`nalishlarda belgilandi:

Axloqda, xulq-odobda va fuqarolar ongida milliylik ruhini, his-tuyg`ularini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish... Axloq va ongda milliy g`ururni shakllantirish;

— axloqdagi, xulq-odobdagi milliylikni umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni o`zlashtirish, ularni tarbiyaga singdirish asosida yuksaltirish, axloqiy merosdan keng foydalanish, axloq va ongni boshqa xalq va millatlarga xayrixohlik, do`stlik, ular bilan tinch-totuvlik ruhida tarbiyalash, yoshlarga baynalminallik tuyg`usini hamda milliy nizolarga, kamsitishlarga, mensimasliklarga esa nafrat hissini singdirish»□. Shu tariqa O`zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi ilmiy asoslaridan kelib chiquvchi «milliy odob», «milliy g`urur», «millatlararo muloqot madaniyati» kabi fazilatlarni shakllantirish milliy tarbiyaning vazifalariga aylantirildi.

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda ta'limni tashkil qilish, liieylar, kollejar ochish, iqtidorli bolalarga g`amxo`rlik qilish, ta'limning sifatini jahon standartlari darajasiga etkazish yo`lida xayrli ishlar boshlandi. Galdagi vazifa — tarbiya masalasini ham shu darajada hal qilish edi. Zero, sobiq sovet pedagogikasidagi «ta'limning o`zi tarbiyalaydi», deya tarbiyani ikkinchi darajali ish

deb qarash, hatto ayrim bilim- li kishilardagi soʻz va ish orasidagi tafovutda namoyon boʻlmoqda edi. OAVlarida ayrim bilimli ishbilarmonlar xalqimizning xorijdan valyuta hisobiga keltirilgan rizq-roʻzini oʻgʻirlab, chetga chiqarib sotganlari; bunday jinoyatlarning boshida 276 nafar mansabdor shaxslar turganligi, qonunlar oliy maʼlumotli kishilar tomonidan ham bot-bot buzilayotganligi, ayrim maktab oʻqituvchilarining vatanimiz kelajagini oʻylash u yoqda tursin, hatto maosh, imtiyozlari oshirib qoʻyilgandan keyin ham oʻz darslari sifatini oshirishga urinmayotganliklari va boshqalar haqida tashvishli xabarlar bildirilmoqda edi. Respublika Prezidenti bu hodisani vijdon masalasi, yaʼni aholining bir qismida niyat — soʻz — ish orasida farqning mavjudligida deb baholadi. Mavjud holat yosh avlodni ana shu illatdan himoya qilish uchun ularning niyati, soʻzi va ishi bir — sof vijdon sohiblari etib tarbiyalash zaruratini pedagogika faniga ijtimoiy buyurtma sifatida belgilashga asos boʻldi.

Milliy tarbiya mazmunini eng yaxshi oʻzbek oilalarida amal qilgan va amal qilib kelayotgan tarbiya mazmuni, shuningdek, mustaqillik sharoitida davlat va jamiyat maktab tarbiyasiga qoʻygan talablardan mujassamlangan fazilatlar hosil qiladi. Muayyan fazilatlarining izchil, turli vaziyatlarda, turli vositalar yordamida singdirilib, tuzatilib, takomillashtirilib borilishi, pirovard natijada, davlat va jamiyat, oila, mahalla, maktab uchun namunaviy oʻquvchi, oʻgʻil-qiz axloqini hosil qiladi. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda milliy davlatchiligimiz, xalqimiz tarixi, hoziri, istiqdoli va istiqboli talablarini umumlashtirgan holda hozir oʻquvchilarimizda shakllantirilishi dolzarb ahamiyat kasb etayotgan fazilatlar tasnifini tuzdik. Barcha insoniy fazilatlar kabi mazkur fazilatlar ham ratsional, emotsional va faoliyatga asoslangan tarkibiy qismlar uygʻunligiga tayanadi. Shu tufayli oila, maktab, mahalla maktabdan tashqari muassasalarning izchil, amaliy hamkorligi bu fazilatlarni shakllantirishning barqaror surat va sifatini taʼminlaydi.

Milliy-istiqloliy tarbiya mazmunini quyidagi bilim, koʻnikma va malakalar uygʻunligini pedagogik taʼminlash tashkil qiladi: kattayu kichik bilan avval salomlashib, keyin suz boshlash; ota-onaga mehrlilik; nafaqat yoshi ulugʻlarni, balki oʻzidan kichiklarni ham samimiy izzat qilish; toʻy-maʼraka, janozada oʻz oʻrnini bilib

xizmat qilish; boshqa millat bolalarini ham xuddi o`zidek millatparvar bilib, hurmat bilan e'zozlash, ularning milliy madaniyatiga samimiy qiziqish; nohaqlik va axloqsizlikni ko`rsa, xoh katta, xoh kichikni noto`g`ri ishlardan qaytarib, insofqa chaqira olish; jamoat transportida o`zidan katta va kichikka izzat ko`rsatish; o`zi mansub jamoa muammolariga tegishli yig`ilish, majlis, xayriyalarda faollik; qanoatlilik; xalqlar, millatlar orasidagi fitna-fasod, jaholatga qarshi turish;

umummilliy jipslikni hamshaharlik, mahalliychilikdan ustun qo`ya olish; o`zining tabiatga, jamiyatga, o`ziga bo`lgan munosabatlarini «yaxshi niyat», «yaxshi so`z», «yaxshi ish» asosiga qura olish; tavozelik, ochiq chehralik; inson umri, vaqtini qadrlash; gunoh yoxud xato qilsa kechirim so`ray olish; o`zining etti pushti tarixini mufassal aytib bera olish; barcha qarindoshlarining yaqinlik darajalari va nomlarini bilish va ularga mehrini namoyish qilish; sinfdoshi, o`rtog`i oilasida noxush voqea sodir bo`lganida, bemor bo`lganida borib hol-ahvol so`rash; tanishlari, do`stlari, notanish bolalar arazlashganda ularni yarashtirishga harakat qilish; birovning shodligidan shodlanish, qayg`usiga hamdard, sherikligini bildira olish; (o`g`il bolalar uchun) qiz bolalarni har tomonlama nozik deb e'zozlash, ularga o`z hurmatini amalda namoyon qilish; (qiz bolalar uchun) o`g`il bolalarni g`ururli, mard, shijoatli deb bilish, ularga o`z hurmatini bildirish; aka va opani ota-ona kabi izzat qilish; bir marta ko`rishgan kishining ismini so`rab qo`yish va esda saqlash; vafot etgan yoki o`zi shu erda yo`q kishi haqidagi g`iybat va tuhmatdan xazar qilish; o`ziga ishongan kishining sirini saqlay olish; «yomon» deb nom chiqargan bolalardan o`zini nari tuta olish; yaxshi kishilarga havas va taqlid qilish; birovning aybiga kulmaslik, yuziga solmaslik; kek saqlamaslik; badavlat kiyingan bola qarshisida o`zini xor tutmaslik, kambag`al kiyingan bola oldida kekkaymaslik; o`g`il bo`lib qizlarning, qiz bo`lib o`g`illarning kiyimini kiymaslik; milliy axloq va sharoitga xilof xatti-harakatlardan tiyilish; o`ziga topshirilgan ishni oliy darajada bajarishni ilohiy e'tiqod darajasida tushunish; sinab do`st bo`lish; millat, vatan manfaatlariga zid harakat qilgan do`stidan kecha olish; ota-onasi lozim ko`rib bergan ovqat, kiyim-boshga qanoat qilish; nonni e'zozlash; ona tilida sof fikrlash, so`zlash; uyat, harom so`zlarni hech qachon, hech qaerda, hatto urishgan paytida ham tilga keltirmaslik; kattalarning ijobiy axloq

namunalarini diqqat bilan kuzatish va asta-sekin o'z xatti-harakatlariga singdirish; har bir jiddiy ishni ota-ona bilan maslahatlashgan holda boshlash, o'z xalqi tarixi, allomalar xizmatlari haqida minnatdorlik bilan hikoya qilib bera olish; milliy-madaniy yodgorliklar tarixini yaxshi bilish va ularni asrashga xizmat qilish; savdo-sotiq, bozor munosabatlarida insofli, chaqqon, jur'atli bo'lish; milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini o'zlashtirish, ijtimoiy-siyosiy voqealarga tarixiy nuqtai nazardan turib mustaqil munosabat bildira olish; kitobxonlik; sabrli, andishalilik; o'z kelajagiga taallukdi masalalar bo'yicha mustaqil, yoshiga mos fikr gorita olish va h.k.

Milliy tarbiya mazmunini to'latmoq uchun milliy tarbiya uslublarini tiklamoq kerak. Zero, o'zbek tarbiyachilik madaniyati o'zining boy uslubiy manbalariga ega. Mustaqil yurtimiz umumta'lim maktablarida tarbiyadagi islohot xalqimiz orasida bolaga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish usullarini o'rganib, pedagogik asoslab milliy tarbiya uslubiyatini boyitishni taqozo etadi.

Ma'lumki, so'zlar, iboralar ko'pincha bir necha xil ma'noni anglatadi. U yoki bu so'zning ilmiy pedagogik atamaga aylanishi esa, bir so'zning muayyan bir ma'noni anglatishini talab qiladi. Masalan, «kechirmoq» so'zi to'rt xil, «o'ynamoq» so'zi o'n xil ma'noga ega. Bu so'zlarning atamalarga aylanishi uchun ularning «fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaga aylanishi talab qilinadi. Bunga «Botanika atamaları», «Zargarlik atamaları», «Huquqshunoslik» atamaları va boshqalar misol bo'la oladi. Hullas, so'z-atama-uslub harakati orqali yuqoridagi so'zlar aniq va barqaror pedagogik tushunchalarga aylanadi. Masalan, «kechirmoq» — tarbiyalanuvchiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish maqsadida u yo'l qo'ygan xato, gunohni afv etmoq usuli; «o'ynamoq» atamasi — bolada ijobiy sifatlarni rivojlantirish, salbiy sifatlarni kamaytirish maqsadiga yo'naltirilgan, ma'lum qoida va usullarga asoslangan o'yinlar o'ynash usuli va h.k.

Ko'rinib turibdiki, mazkur so'zlar «tarbiya usuli» tushunchasining barcha talablariga javob beradi. Zero, milliy tarbiya usublari — bu o'zbek xalqining o'z farzandlarida ijobiy fazilatlarni rivojlantirish. Salbiy xulq-atvorlarni bartaraf qilish maqsadida qo'llagan va qo'llayotgan yo'l-yo'riqlar, harakat tartiblari, tarzlari tizimidir.

Quyida sharhlanayotgan uslublar xalqimizning o`g`il- qizlarga madaniy, mehrlitabchan munosabatini, bola shaxsiga hurmatini saqlab qolib, maktab tarbiyasida qo`llash imkonini beradi. Bolaga tarbiyaviy ta'sir o`tkazishning salbiy usullari ham mavjud. Amaliyotda bartaraf qilish uchun ular ham tahlil qilinib, o`rganilmog`i kerak. Bu esa ayrim o`qituvchilar, ota-onalarda uchrab turadigan pedagogik xatolarni tuzatishga yordam beradi.

Oqlamoq — shunday vaziyatlar bo`ladiki, bola yil bo`yi ajoyib xulq-atvor, o`qish namunalarini ko`rsatib keladi-yu, bilib-bilmay bir xatoga yo`l qo`yadi. Masalan, birov bilan urishib qoladi; hasharga kelmay qoladi va h.k. Shunday holda o`qituvchi — sinf tarbiyachisi uni (oldingi namunali xulqi hurmati) oqlamog`i kerak. So`ramoq — bolaning ilmiy va axloqiy bilimlari haqida ma'lumot olmoq, tekshirmoq, norasmiy imtihon qilmoq. Talab — tarbiyalash maqsadida boladan biror narsani qa'iyat bilan so`rab turish. Tasalli bermoq — muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolani yupatish, ko`ngil ko`tarish uchun gapirmoq, harakat qilmoq. Ta'birlamoq — bolada, sinf ahlida, jamoat ahlida uchrab turuvchi xatti-harakatlarni sifatlamoq. Ta'kidlamoq — bolalar bilan o`tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmuni uqtirib, tayinlamoq. Taqtsirlamoq — o`quvchini, farzandni qadrlash, munosib baholash, bolaga uning qadri bor ekanligini sezdirish. Taqiqlamoq — tarbiyaviy maqsadda bolaga, o`quvchiga biron narsani man etish. Tahsinlamoq — o`quvchini, farzandni «balli», «ofarin» kabi so`zlar bilan qarshi olish, maqtab yuksak baholash. Tenglashtirmoq — bola, o`quvchi biror tahsinga sazovor ish qilganda uning xatti-harakatini eng hurmatli, aziz kishilar xulqiga qiyoslash, yomon ish qilganida esa o`z qishlog`i, mahallasi, hududidagi «yomon» deb nom qozongan shaxs xulqiga o`xshatmoq, taqqoslamoq. Tergamoq — vaqti-vaqti bilan bolaga etarli darajada qattiqqo`llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo`ya xatti-harakatlari uchun koyib, «yo`li»- dan qaytarib turish. Uyaltirmoq - noma'qul qilig`i uchun bolaga o`ta noqulaylik tug`dirish, xijolat, nomus qildirmoq. Shavqlantirmoq — bolaning xulqi, o`qishidagi muvaffaqiyatlari, kelajagiga g`oyat mamnunlik hissi bilan qiziqmoq, ruhiy ko`tarinkilik bilan zavqlanmoq va zavqlantirmoq, qanoatlantirmoq. Erkalatmoq — o`g`il bolani «qo`zichog`im», «sherim», qiz bolani esa «oppog`im», «onajonim»

deya silab-siypalamoq, suymoq. Yalinmoq — agarda boshqa xil usul kor qilmasligiga ko`z etsa, bola qalbida mehrni yangilash, uyg`otish maqsadida uni biror narsaga ko`ndirish uchun iltimos qilmoq, o`tinib so`ramoq. Yarashtirish - oilada, sinfda ba'zan uchraydigan o`zaro urish-janjalg`sh to`xtatish, urishmaslikka ahd qildirmoq, munosabatni yaxshilamoq, totuvlashtirmoq. O`ynamoq — bola bilan unda ijobiy sifatlarni rivojlantirish, salbiy sifatlarni yo`qotish maqsadiga yo`naltirilgan ma'lum qoida va usullar bilan ijro etiladigan o`yinlarni birga o`ynash. O`rgatmoq — bolaga biror ish-harakat (masalan, choy damlashni, turli joy, vaziyatlarda o`zini tutishni, gapirishni va h.k.) bajarish usulini, yo`l-yo`rig`ini tushuntirmoq, bildirmoq va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilmoq. O`qitmoq — yozilgan narsani yoki matni undagi belgilar, harflar vositasida aynan aytib, eshittirmoq. Qaytarmoq — bola, o`quvchi jahli chiqib, qizishib biror kor-hol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni ko`rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo`ya ishdan, xatti-harakatdan o`zini tutishga undamoq, tiymoq. Qiziqchilik qilmoq — o`quvchi, bola bilan munosabatda rasmiyatchilikni, psixologik tanglikni bartaraf qilish maqsadida mavzuni burib yuborish, ermak, hazil qilish, bolani kuldirish. Sovg`a berish — bolaga bayram, hayitlar munosabati bilan imkon darajasida tuhfarlar qilib, uning mehrini yangilab, oshirib turish. Homiylik qilish — bolaga, biror sohaga qiziqib, berilib shug`ullansa, bu ishda unga yordam, madad bershp, muhofaza etish.

Shu bilan birgalikda o`quvchi, bolaga tarbiyaviy ta'sir o`tkazishning salbiy usullari mavjudligi va ularga barham berish uchun ulardan namunalar keltiramiz:

Amalga oshirilgan nazariy, uslubiy, amaliy izlanishlarni ta'lim jarayoniga, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tizimining barcha tarkibiy qismlariga kompleks joriy qilinishi milliy tarbiyaning texnologik tizimini belgilashga asos bo`ldi. Chunki ijtimoiylashuv, bolaga jamiyat, milliy madaniyat tomonidan ko`rsatiladigan tarbiyaviy ta'sirlar uning ongi va xulqiga sistemali ta'sir ko`rsata olmaydi. Maktab esa o`ziga xos texnologik imkoniyatlari mavjudligi tufayli milliy tarbiyani maqsadli amalga oshira oladi. Bu esa maktabning o`quvchilarda milliy tarbiya mezonlarini hosil qiluvchi bilim, tushunchalarni xulq-atvor me'yorlariga aylantirishning real imkoniyatlariga ega ekanligini ko`rsatadi. Ana shu nuqtai nazardan: 1) maktab —

O'zbekistonda etuk milliy, zamonaviy yosh avlodni tarbiyalab etipggira oluvchi asosiy davlat muassasasidir; 2) maktab tarbiyaviy jarayoni ilmiy asosga qurilsagina samarali, maxsus vositalarga ega bo'ladi; 3) o'qish — maktab yoshidagi bolalarning asosiy vazifasi, etakchi faoliyatidir. Bola maktabga kelishining birinchi kuniyoqu axloqiy qadriyatlar, me'yorlarning o'zi uchun yangi dunyosiga kirib boradi, yaxshi o'qish, yaxshi xulqlilik — o'zining oilasi, maktab oldidagi burchi ekanini anglay boshlaydi; 4) turli kasb egalari bo'lmish ota-ona, qarindosh, mahalladoshlardan farqli o'laroq, endi uning tarbiyasi bilan maxsus pedagogik tayyorgarlik ko'rgan mutaxassislar — o'qituvchilar shug'ullanadilar; 5) o'quvchi o'tkazadigan har bir kunning katta bir qismi maktab, o'qish masalalari bilan band bo'la boradi va h.k.

Yuqoridagi xususiyatlar tufayli o'quvchilarda muayyan insoniy sifatlarning rivojlanishini qayd qilish, kuzatish, tarbiyalash imkoniyatlari paydo bo'la boradi. Masalan, o'qish — bolatsan intizomlilikni, mas'uliyatni, vaqtni bilib, tejab ishlatishni, irodaviy sifatlarni namoyon qilishni talab qiladi. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning beg'am hayoti, — deb yozadi bu haqda L. I. Bajovich, — mas'uliyatga to'la hayot bilan almasha- di: u maktabga qatnashi, dastur bilan belgilab qo'yilgan fanlar bo'yicha o'qishi, darsda o'qituvchi talablarini bajarishi, maktab rejimiga, xulq-atvor me'yorlariga bo'ysunishi, dasturlarda belgilangan qoida, bilim va ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishga mas'uldir». Buni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin.

Dars vaqtining hamma uchun bir xil davom etishi, sinfdoshlari bilan murosayu madora qilish zarurati o'quvchilardan o'qishga mas'uliyatlilik, burch, vijdoniylik, boshqalar bilan til topa bilish, milliy va millatlararo muloqot madaniyatini talab qila boradi. U jamoat joyi bo'lmish maktabda o'zidan katta, kichik, tanishu notanish, o'quvchilar, o'qituvchilar bilan mavjud milliy odob muhitida muloqotga kirisha boradi, munosabatlarning ob'ekti va sub'ektiga aylanadi. Darslar mazmuni orqali Vatan, mustaqillik, istiqloq, millat haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtiradi. Sinf jamoasining milliy ongi (milliy o'zligini anglashi) o'quvchining milliy dunyoqarashi, milliy identifikatsiya jarayoniga, milliy tarbiyaviy fazilatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Milliy o'zlikni anglash bola milliy axloqining norasmiy boshqaruvchisi

(regulyatori) sifatida har bir bolaning xatti-harakatiga, xulqiga ta'sir ko'rsata boradi. Sinf jamoasining milliy ongi bolaning shaxsiy fazilatlar haqida olgan tushunchalarini uning shaxsiy milliy ongiga va xatti-harakatlariga o'tkazadi. Masalan, milliy g'urur, vijdoniylik asta-sekin tashqi talab (sinf jamoasining milliy ongi, vijdoniyligi darajasi) ta'sirida sayqallasha borib, o'quvchining ichki ehtiyoji, odatiga aylana boradi. O'quvchining adabiyot, odobnoma, tarix va boshqa fanlardan olgan axloqiy bilimlari uning kundalik xulq-atvori, dunyoqarashini boyitib, milliylashtira boradi. Chunki, inson ilk yoshlaridanoq «Shaxsiy fazilatlar haqida ilk tasavvurlarga ega bo'lib, o'z xatti-harakatlarini «yaxshi» — «yomon» deya ajratishga qodir bo'la boradi»¹⁴. Demak, milliy g'urur, vatanparvarlik, vijdoniylik va boshqa fazilatlar asoslari ham mazkur tushunchalarni o'zlashtirish orqali kechadi va bolaning xulq-atvor tajribasida shakllana borishi mumkin. Milliy tarbiyalanganlikning yuqori darajasi nafaqat shaxsiy fazilatlar haqidagi bilimlarga egalikda, balki mavjud bilimlarni kundalik turmug'ida qo'llay borilgan va ularning buzilishiga o'z munosabatini bildirishda ham namoyon bo'ladi. Xalqimiz orasida keng tarqalgan taqiq va rag'batlar tizimining bola tiliga ko'chishi — «ofarin», «balli», «yashang», «unday qilmang», «savob bo'ladi», «uyat bo'ladi», «uvol bo'ladi» va boshqalar buni yaqqol ko'rsatib turadi.

¹⁴ А. Запорожец, Д. Элконин. Психология личности и деятельности дошкольников. — М.: Просвещение, 1965.

1.2. Ta'lim jarayonida o`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda ta'lim muassasalarining imkoniyatlari

Modernizatsiya ta'lim jarayonida ta'limning milliy-tarbiyaviy imkoniyatlari uning mazmunida keng ko`lamda ochiladi. Milliy mustaqillik o`zbek maktablaridagi ta'lim mazmunini isloq qilib, uning istiqloliy o`zgarishlariga ma'rifiy va mafkuraviy zamin yaratdi. O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan barcha darsliklarni tub milliy manfaatlar asosida isloh qilish harakati boshlandi. Bu harakatning ilk natijalari o`zbek maktabining gumanitar fanlari darsliklarida namoyon bo`ldi. Bu tabiiy, qonuniy zarurat edi. Chunki, milliy istiqloлга intiluvchi, «o`zbek davlatchiligi an'analari»ga asoslanuvchi davlatning maorif siyosati poydevori qurilmoqda edi.

Prezident I. Karimovning ma'naviy, madaniy mustaqillikka har bir fuqaroning ona tabiatga, ona tiliga, milliy madaniyat, tarixga, Vatanga muhabbatsiz etishib bo`lmasligi haqidagi g`oyalari, qator qonunlar, milliy istiqlol mafkurasi, Uzbekiston vatanparvarligiga qilingan urg`u birgalashib millatni, mustaqil davlatimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga ko`taruvchi omillarga aylandi. Galdagi vazifa — yana shu tarixiy, ma'rifiy, ilmiy-pedagogik o`zgarishni ilmiy anglash va milliy tarbiya mazmuni bilan uyg`unlashtirish, muvofiqlashtirish edi.

«Mening Vatanim — O`zbekiston» tushunchasini o`zbekistonlik o`quvchilar e'tiqodiga aylantirish dolzarb vazifaga aylandi. Boshlang`ich sinflar gumanitar fanlar darsliklarida qadrdon o`lka, ona xalq, millat, ona tilining makoni — O`zbekiston ekanligini muntazam, izchil uqtira borish imkoni yaratildi.

Biroq, gumanitar fanlar o`qituvchilarining dars konspektlarini o`rganish, darslarini tahlil qilish ko`plab o`qituvchilar darsning maqsadini milliy tarbiyaviy vazifalarni bajarishga yo`naltirish borasida zaruriy ko`nikma va malakalarga ega emasligini ko`rsatdi. Kuzatilgan darslarning 11 foizidagina darsning tarbiyaviy maqsadi milliy istiqlol vazifalariga bog`langanligi qayd qilindi.

Respublikamizning ilg`or maktablarida ta'lim mazmunini tarbiyaviy talqin qilish va tarbiyaviy ishlarni milliylashtirish borasida ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, Termiz shahridagi 13-o`rta maktab pedagogik jamoasi gumanitar ta'lim mazmunini

milliylashtirish, uni tarbiyaviy ishlar bilan uyg'unlashtirish masalasiga kompleks yondashdilar. Darsda va sinfdan tashqarida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda milliy kasblar: ganch o`ymakorligi, yog`och o`ymakorligi, naqqoshlik, kulolchilik, tikuvchilik va hatto novvoylik kasblarini o`rgatishni boshladilar. Har bir o`qituvchi o`z darsida o`zbek allomalari bisotidan namunalar berishga harakat qildi. Hadis namunalaridan foydalanish, «Oz-oz o`rganib dono bo`lur» fakultativ kursini tashkil qilish, o`zbek maqollari aytishuvini uyushtirish, tarix darslarida O`zbekiston va islom tarixini o`rgatish, musiqa darslarida folklor, etnografik va nasihat ashulalarini eshittirish, rasm-chizmachilik darslarida naqsh chizish, ganch va yog`och o`ymakorligi nusxalari bilan tanishuv, mehnat darslarida o`g`il bolalarni naqsh, ganch, yog`och o`ymakorligi, kulolchilik, dehqonchilik bilan, qizlarning tikuvchilik, do`ppichilik, yigiruvchilik va novvoylik kabi kasblarni egallashi, «Odobnoma» darslarining ayrim soatlarida qizlar va o`g`il bolalarni alohida o`qitish, gumanitar fanlar darslarida urf-odatlarimizning insonparvarona mohiyatini bayon qilish, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda atama va nomlar (kishilar ismi) mazmunini o`rganish, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Forobiy, Ulug`bek, Navoiy haqida badiiy sahnalarni namoyish qilish, to`garaklarda milliy o`yinlarni o`rganish, iste'dodli o`quvchilardan etnografik dastalar tashkil qilish zarur.

Maktabning milliy tarbiyaviy imkoniyatlarini o`rganish bu ishning muhim bo`g`ini — tarbiyalanganlik mezonlari va ularni qayd qilish ilmiy asosga qo`yilmaganligi, «og`zaki tarbiya», tadbirbozlikka berilish kayfiyati hali ham kuchliligini ko`rsatdi. «O`quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini qanday va nimalarga asosan belgilayapmiz?» degan savolga, asosan, «yurish-turishiga», «o`zini tutishiga», baholariga qarab degan javoblar berilardi. Muallimlarning bir qismi «O`quvchilarni hozirgi sharoitda tarbiyalash mumkin bo`lmay qoldi» deya nolisa, ba'zi birlari «Tarbiyalanganlikni ham o`lchab, baholab bo`larkanmi?» qabilida hayron bo`ldilar. O`sha maktab rahbari ularning fikrini «Bolalarning tarbiyalanganligini kelajak ko`rsatadi. Chunki o`qituvchi mehnati meva emaski, bir yilda bilinsa», — deya xaspo`shladi. Shu tariqa bu toifa o`quvchilarining qandayligini, ulardagi milliy g`urur, vatanparvarlik, mafkuraviy onglilik darajasidagi o`zgarishlarni aniqlashga

layoqatsizliklarini ko`rsatdilar. Bunday pedagogik havaskorlik, layoqatsizlikning jamiyat uchun xavfi, zarari shundaki, shundaylar qo`liga tushadigan o`nlab, yuzlab, minglab o`quvchilar — ertangi O`zbekiston bolalari o`zligini yo`qotishlari, jamiyatda mafkuraviy, ma'naviy bo`shliq yaralishi mumkin. «Tarbiyalanganlikni ham o`lchab bo`larkanmi?» savolining negizi pedagogika institutlari va universitetlardagi pedagogik ta'lim tizimiga borib taqalishi kunday ravshan.

O`quvchilarning milliy mafkuraviy onglilik darajalarini o`rganishda proektiv vaziyatlar hosil qilish usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Biz ana shu uslubni qo`llab, yuqori sinf o`quvchilaridan ular agarda O`zbekiston Prezidenti bo`lib qolsalar, maktab o`quvchilariga qanday tilaklar bildirishini so`radik. O`quvchilarning 21 foizi qarashlarida Prezidentimizning yoshlardan kutayotgan umidlari aks etdi. Ya'ni, ular bolalarni «odobli, inoq bo`lishga, milliy g`ururli, vatanparvar bo`lishga, institutlarga o`z kuchlari bilan kirishga» chaqirishlarini bildirdilar. O`quvchilarning 16 foizi, avvalo, «arzonchilikka erishishga, poraxo`rlikka qarshi kurashishga, poraxo`rlikni man qilish»ga kirishishlarini bildirdilar. Lekin so`ralgan o`quvchilarning 63 foizi milliy mafkuraviy ongining shakllanmaganini ko`rsatishdi. Bu toifaning aksariyati bergan javoblarida maishiy, sayoz niyatlar ham uchradi. Aslida bu, o`quvchilarning emas, balki maktab, sinfda milliy mafkuraviy tarbiyaning qanday darajada olib borilayotganligi, sinf rahbari ishining ko`rsatkichi edi.

Darhaqiqat, o`quvchilar «yaxshi xulq» deganda ishchanlik, hushmuomalalik, hushchaqchaqlik, yaxshi o`qish kabi axloqiy tushunchalar bilan cheklanib qolmoqdalar. Bu o`qituvchilarning shogirdlaridan tarbiyachi sifatida nimani talab qilayotganining in'ikosidir. Bu o`quvchilar vatanparvarlik, milliy g`ururlik, millatlararo muloqot madaniyati, vijdoniylik kabi tushunchalarni deyarli ishlatmaydilar. Bu esa ushbu tushunchalar haqida ularda aniq tasavvurlar yo`qligini, ushbu fazilatlar ulardan talab qilinmayotgani — tarbiyalanmayotganini ko`rsatib turardi. Salbiy sifatlar haqida ham shunday xulosani keltirish mumkin. Bundan, maktabda milliy tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari, sinf rahbarlari, fan o`qituvchilarining saviyasi, layoqati, munosabatini jiddiy o`rganish lozimligi ayonlashadi.

Ma'lumki, har bir ishning samarasi, biror natija berish-bermasligi uning aniq hisob-kitobga asoslangani, maqsad sari yo`naltirilgani yoki yo`naltirilmaganiga bog`liq. O`rganishlarimiz natijasida maktablarda amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni aniq mezonlarga asosan qayd qilinib, hisob-kitob etib borilishining ahvoli quyidagicha bo`lib chiqdi. Ya'ni, so`ralgan ilmiy bo`lim mudirlarining 17,9% i tarbiyalanganlik mezonlari haqida to`g`ri, 22% i qisman to`g`ri, 52% i esa noto`g`ri tasavvurga ega. Bu haqda ilmiy bo`lim mudirlarining 8,1% i tashvish bilan «O`quvchilarning tarbiyalanganligi to`g`ri baholanmayapti», «fanlardan olgan bahosiga qarab baholanayapti», «umuman baholanmayapti», deya munosabat bildirdilar. Olingan javoblarni umumlashtirish shuni ko`rsatdiki, o`qituvchi-tarbiyachilar o`quvchining xulqini baholashda ularning ko`rinib turgan jihatlariga (asosan «tinch o`tirishiga») tayanishar ekan (69,5%). Hatto yaxshi xulqning ortida nima turgani, uni harakatga keltiruvchi kuchlarni «ko`rishga», qayd qilishgada sinf rahbarlarining aksariyati o`zidir. Bizningcha, maktab tarbiyasining buyuk imkoniyatlarini bo`g`ib turgan bosh kulfatlardan biri shundadir!

Kishini bir oz yupatadigan jihati — (milliy tarbiyaning maqsad-vazifalarini to`g`ri talqin qila olmasalarda, tarbiya mezonlari va ularni qayd qilishni o`zlashtirmagan bo`lsalarda) sinf rahbarlarining 73,8% tarbiyaviy ish rejalarida milliy tarbiya vazifalarini rejalashtirmoqdalar, «amalga oshirmoqdalar». Chunki ... «hozir shuni talab qilishmoqda» (javoblardan).

Xo`sh, (maqsad-vazifalarini, uslublarini, tarbiyalanganlik mezonlarini qayd qilishni yaxshi o`zlashtirmagan bo`lsalarda, bari bir rejalashtirilayotgan) milliy tarbiyani amalga oshirishda qanday uslubiy adabiyotlardan foydalanilmokda? Maktabning milliy tarbiyaviy imkoniyatlarini o`rganish jihatidan bunga javob berishning ahamiyati katta. Olingan ma'lumotlar quyidagilarni ko`rsatdi: (ahamiatliligining kamaya borishi bo`yicha):

1. Qur'oni karim, hadis.
2. Gazeta, jurnallar.
3. Mutafakkirlar, allomalar bildirgan fikrlar.
4. Mahalliy urf-odatlar, misollar.

5. Maqollar.
6. Shaxsiy namuna.
7. Uslubiy tavsiyalar.

Ushbu ro`yxat har bir pedagog olimni ham o`ylagib qo`yadi. Islom dinining bebaho tarbiyaviy manba, xazinaligiga, undan axloqiy maqsadda foydalanish zaruratiga shubha keltirmagan holda shuni aytish kerakki, Qur'oni karim, hadislarga o`ylab, bilib, tushunib murojaat qilish kerak. Ya'ni, bu yo`nalishda qaysi g`oyani, nima uchun, qay me'yorda, kimga, qaysi vaziyatda, qay maqsadda ishlatish hali ilmiy pedagogik asosga ko`yilgan emas. Biroq bizning ayrim sipf rahbarlarimiz (maqsad-vazifalarini, tarbiyalanganlik mezonlarini qayd qilishni yaxshi o`zlashtirmasdan rejalashtirayotgan, amalga oshirayotgan) milliy tarbiyani qadimiychasiga tushunib, bu manbalardan palapartish foydalanmoqda. Natijada, bir tomondan, o`zlari eplay olmayotgan ish — milliy tarbiyaga Qur'oni karimni sherik qilib, uni ham o`quvchilar nazaridan tushirayotganliklarini sezmayaptilar; ikkinchidan, bu fao- liyatning konstitutsiyaviylik darajasi noma'lum. Bu savollarga javob berib, muammolarni echuvchi uslubiy tavsiyalar etishmasligi esa yuqoridagi misol — uslubiy tavsiyalardan foydalanishning ettinchi darajaga tushib qolganligidan ham ayon. Uslubiy-tarbiyaviy «qahatchilik» o`qituvchi-tarbiyachilarimizning milliy tarbiyaviy ehtiyojlarida o`z ifodasini topmoqda.

O`zbek maktablarining milliy tarbiyaviy imkoniyatlarini bevosita o`rganish, ularning maktab ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan, harakatdagi ish rejalarini tahlil etish quyidagi xulosalarga asos bo`ldi:

1. Barcha sinf rahbarlarining ish rejalarida milliy tarbiyaviy vazifalar, ozmi-ko`pmi, uchraydi («Bizning qishlog`imiz», «Vatanimiz siyosati» mavzularida suhbat, «1 sentyabr — O`zbekistonning mustaqillik kuni» darsi va h.k.). Lekin ularning, milliy tarbiya nazariyasi nuqtai nazaridan chuqur anglanmaganligi, vazifalarni ifodalash, belgilash va amalga oshirishda sistemalilik, izchillik yo`qligi tufayli, samaradorligi noma'lumligicha qolmoqda.

2. Milliy tarbiya vazifalarini belgilash (demak, amalga oshirishda ham) o`quvchilarning yosh, shaxsiy, jinsiy xususiyatlari hisobga olinmayati (o`g`il bolalar

va qiz bolalarni bir xil tarbiyalash davom etmoqda). Ayrim hollardagina «qizlar bilan ishlash» bo`limi uchraydi. O`g`il bolalar — bo`lajak yigitlar tarbiyasi hali maxsus faoliyat, tarbiya vazifasiga aylantirilmagan.

3. Ayrim sinf rahbarlarining tarbiyaviy ish rejalarida ijodiylik shiori ostidagi boshboshdokdik, sistemasizlik uchraydi. «Hozir shuni talab qilishyapti» tamoyilidan kelib chiqib, o`zlari hachi yaxshi bilmaydigan milliy tarbiya jarayoniga bunday «ijodiy» yondashish foydadan ko`ra ko`proq zararga ishlashi mumkin.

4. Tarbiyaviy soatlar mavzularida tarbiyaviy muammo kam uchraydi. Ularning aksariyati — chaqiriqlar («Hayvonlar — bizning do`stimiz!», «Sport — sog`lik garovi!», «Tabiatni asrang!», «Gulla, yashna, jon O`zbekiston!» va h.k.) asosiga qurilgan. Bu tarbiyaviy ishlarga rasmiy yondashuv mavjudligini ko`rsatadi.

5. Sinf rahbarlarining ish rejasidagi «Ota-onalar bilan suhbat» bo`limining 92%ining mavzusi «yomon o`qishga», 8%i esa «yomon xulq» muhokamasiga bag`ishlangan. Bu hol sinf rahbarlari faoliyatini baholash sinfning tarbiyalanganlik darajasiga emas, batki o`qishdagi ko`rsatkichlarga — tabeldagi baholar, o`quvchilarning «tinch o`tirishiga»ga asosan amalga oshirilayotganini ko`rsatadi.

6. Sinf jamoasi tavsifnomalarining aksariyatida o`quvchilar soni, o`g`il-qizlar soni, yaxshi, yomon, a'lo o`quvchilar soni, ko`p millatli maktablarda — bolalar- ning «millati» belgilanadi. Sinf jamoasining tarbiyalanganlik darajasiga esa «o`quvchilar bir-birlariga mehribon-ahil», «hamma o`quvchilar jamoat ishida aktiv», «sinf jamoasi fizkultura va sport ishlarida aktiv» singari baho berilishi tarbiyaviy ishlarning: a) ilmiy asosga qo`yilmaganini; b) sinf rahbarlarining pedago- gik tafakkuri milliy- istiqloliy tarbiya g`oyasi bilan isloh qilinmaganini ko`rsatadi.

7. Sinf rahbarlari tarbiyaviy ish rejalaridagi «Tash- kiliy masalalar» bo`limida rejalashtirilgan tadbirlarning 75%ini tashkiliy-didaktik (darslik bilan ta'minlash, obunani tashkil qilish va h.k.), 25%ini tarbiyaviy (o`quvchilar intizomi va o`zlashtirishini ko`tarish, maktab jamoa ishlarida aktiv qatnashish) mazmundagi na rejasi, na muddati, na ko`lami va na mexanizmi bor ishlar tashkil qiladi.

8. «Maktab va oila hamkorligi»da aksariyat hollarda suhbat bilan cheklanib qolinmoqda.

9. Tarbiyaviy ishlar rejasidagi siyosiy-g`oyaviy tarbiya, mehnat tarbiyasi, estegik tarbiya, jismoniy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, milliy tarbiya orasida uyg`unlikka erishilmagan.

10. Sinf rahbarlarining o`quvchilar bilan olib borgan suhbatlarida eng ko`p uchrovchi bosh mavzular: 1) bezorilik qilganligi; 2) dars qoldirganligi; 3) uy vazifalarini bajarmaganligidir. Demakki, sinf rahbari bilan o`quvchining suhbatlari aksariyat hollarda jazolash va jazolanish marosimiga aylanib qolgan. (Sinf rahbarlari tarbiyaviy uslublar, shakllar ichidan eng ko`p qo`llanuvchi shakl sifatida «suhbat»ni bejiz belgilashmagan.) Bunda o`quvchilarning yaxshi fazilatlari qariyb rag`batsiz qoldirilmoqda.

11. Ish rejalarida o`tgan yilgi tarbiyaviy ish natijalaridan kelib chiquvchi, yangi o`quv yilida erishilishi lozim bo`lgan tarbiyaviy maqsad aniq belgilanmaydi. Bu — tarbiyada aniq maqsad yo`qligi, hisob-kitob yo`qligini ko`rsatadi.

12. Maktablarda ta'lim va tarbiya birligi tamoyiliga to`liq amal qilinmayapti. Bu gumanitar fanlarni o`qitishda maqsadning mavhum qo`yilayotganida yoki umuman qo`yilmayotganida namoyon bo`lmoqda.

13. Darslar mazmuni Xalqta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan tobora milliylashtirilmoqda va o`zbek maktablarida keng joriy qilinmoqda.

Uquvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyaviy ishlar tashkilotchilarining pedagogik tafakkuri milliy istiqloliy toya, mazmun bilan isloh qilinmoqda. Lekin buning sur'ati va sifati takomillashtirilishi lozim.

14. Maktabning oila bilan hamkorligi asosan ikki sabab - ota-onalar yig`ilishi va ota-onani farzandlari tomonidan sodir qilingan biror kori hol sabab chaqirtirish orqali amalga oshmoqda edi. Vaziyat maktabning ota- onalarga o`z huquq va majburiyatlarini uqtirib, ixtiyoriy, manfaatli hamkorlikka chorlashini, sistemallashtirishni talab qiladi.

15. Mahalla, qishloq, jamoatchilik bilan tarbiyaviy hamkorlik amalga oshmoqda, lekin bu hamkorlik milliy tarbiyaviy — sifat o`zgarishiga ko`tarilishi kerak. Buni kuyidagi tashvishli rasmiy xabarlardan qam ko`rish mumkin:

«O`zbekiston Xalq ta'limi vazirligi hay'atining iavbatdan tashqari yig`ilishi bo`lib o`tdi. Unda tarbiya tizimidagi salbiy holatlar to`g`risida matbuotda bong urish zarurligi, joylarda bir oy muddatda joriy o`quv iilining yakunlarini chuqur tahlil etish, shuningdek, e'tiborni tarbiyaviy ishlarning natijalariga qaratish zarurligi alohida qayd etildi».

Mavjud holat O`zbekiston hukumati, Prezidenti, milliy istiqolning umumta'lim maktablariga qo`yayotgan tarbiyaviy talablariga javob bera olmasligi tabiiy. Biz ana shu kamchiliklarni bartaraf qilishning muhim yo`llaridan biri — maktabning milliy tarbiyaviy imkoniyatlarini takomillashtirish, deb bilamiz.

Mustaqil O`zbekistonda ta'lim mazmunida ro`y bergan tadrijiy o`zgarishlar, ayniqsa, ijtimoiy fanlar mazmunida yaqqol aks etdi va sinfiylikdan nosinfiylikka, partiyaviylikdan partiyasizlashuvga, kommunistik mafkuraviylikdan milliy istiqolli mafkuraviylikka o`tishda aks etdi.

Mazkur pedagogik o`zgarish ta'limning insonparvarlashuvi, milliy madaniylashuviga yo`l ochdi. Chunki har bir milliy madaniyat faoliyat jarayonida yaratiladi, namoyon bo`ladi, o`rgatiladi, o`zlashtiriladi. Ana shu sabablarga ko`ra, bu faoliyat tarbnyalovchi va o`quvchilarning milliy madaniyatini, milliy istiqolga munosabatini shayutlantiruvchi mohiyatga ega. Modomiki, madaniy bilimlar milliy xususiyatga ega ekan, O`zbekistonda ta'lim mazmuni o`quvchilarni milliy madaniyatga, milliylikka munosabatini shakllantiruvchi ob'ektiv xususiyatga egadir. Mazkur nazariy xulosaga muvofiq, milliy tarbiyaviy zaruratni ta'lim mazmuni, maqsadi bilan muvofiqlashtirish, pirovard natijada esa, ta'lim mazmunini milliy tarbiyaning potentsial omilidan real omiliga aylantirishga kuchli ehtiyoj paydo bo`ladi.

Islahot ta'lim va tarbiya mazmunini, maqsadini, tamoyillarini muvofiqlashtirishi, o`quvchilarni tamomila yangi ijtimoiy sharoitda yashashga tayyorlashi, bozor munosabatlariga o`tish va shu bilan birga milliy g`urur, vijdoniylik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy odob, O`zbekiston vatanparvarligi, milliy mafkuraviy ong sohibi bo`lishlariga xizmat qilishi lozim edi. Ushbu sifatlarni o`zida namoyon qilish uchun o`quvchilar dastlab shu tushunchalarni va ularning tarkibiy qismlarini

o`zlashtirishlari, anglashlari talab qilinardi. Chunki vatanparvar, milliy g`urur, vijdoniylik kabi tushunchalarning istiqloliy mohiyatini anglamay turib, o`quvchi bu fazilatlarni o`zida his qila olmaydi. His qilinmagan fazilat esa shaxsning xulq-atvorida ongli, ustuvor namoyon bo`lmaydi. Xullas, O`zbekiston maktablarining tobora milliylashayotgan ta'lim mazmunining milliy tarbiyaviy imkoniyatlarini o`rganish, aniqlashtirish va o`qituvchilarga bu borada uslubiy yordam ko`rsatish maqsadida darsliklarning milliy-tarbiyaviy imkoniyatlari o`rganilishi kerak edi.

Boshlang`ich sinflar gumanitar darsliklarining milliy tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinarkan, o`quvchilarning yoshi, ruhiy, fiziologik milliy xususiyatlari nazarda tutildi. Jumladan, boshlang`ich sinf o`quvchisida davra, guruh o`yinlar, tengqurlar bilan muloqotga kirishish uchun bolaning o`z ustida turli ijtimoiy rollarni sinab ko`rishi, xayolotining o`sishi, vijdoniylik tuyg`usining namoyon bo`la boshlashi, milliy o`zligini anglashning rivojlana borishi, boshqa millatlar haqidagi tasavvurlarning kengaya borishi, Vatan tushunchasini anglay borishi ro`y beradi.

Bu davrning o`ziga xos xususiyatlarini olimlar «intellektual operatsiyalar davri» (J. Piaje), «ikkinchi bolalik davri» (G. Grimm), «maktab bolalik davri» (D. Bromley), «bolaning ijtimoiy jonzot ekanligini anglash davri» (L. Bajovich), «asosiy faoliyati o`qish bo`lgan kichik maktab o`quvchiligi davri» (D. Elkonin) deb ataganlar. Milliy tarbiya nuqtai nazaridan esa, bu davrni o`quvchining o`zini u yoki bu xalq farzandi sifatida anglashining ilk bosqichi, deb atash mumkin. Boshlang`ich ta'lim mazmunidagi milliy ruh mazmuni ilk bor o`zbek bolasining ikkinchi signallar sistemasi mazmuniga, u orqali esa intellektual operatsiyalari predmetiga aylanadi. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, boshlang`ich va umumta'lim o`rta maktablar o`qituvchilariga didaktik yordam ko`rsatishga kirishildi.

Ona tili, adabiyot fanlarini o`qitish, bolalarning adabiy asarlarni o`qiy boshlashi milliy tarbiya nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Atoqli tilshunos olim A.

Rustamov har bir yaxshi adabiy-badiiy asar ma'rifiy-tarbiyaviy va badiiy qiymatga ega bo`lishi kerakligi, aks holda o`quvchi bunday asardan qoniqmasligini yozadi. Adabiy asar vazifalarining taqsimoti quyidagicha: bilim tashnaligini asarning ma'rifiy tomoni qondiradi, amalda ezgu yo`lga solish vazifasini uning tarbiyaviy

jihati bajaradi va zavq talabiga uning badiiyati javob beradi... Asarning bu uch jihati o`z vazifasini bajarishda bir-biriga ko`maklashadi. Badiiyat asarning tarbiyaviy ta'sirining oshishiga va ma'rifiy jihatining yaxshi o`zlashishiga yordam beradi. Tarbiyaviylik ma'rifatga bo`lgan intilishning va badiiyatning ta'sirini oshiradi. Ma'rifiylik asarning tarbiyaviy va badiiy tomonlarini mustahkamlaydi . Biz til va adabiyot darslari o`qituvchilariga milliy tarbiyaviy tushunchalarni shakllantirishda adabiy asarlarning ana shu xususiyatlariga tayanishni tavsiya etgan bo`lardik.

Shuni ham qayd qilish kerakki, respublikamizning mustaqillikka erishishi, o`zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi barcha darsliklarni yangi, zamonaviy talablarga javob bera oladigan qilib yaratish zaruratini yaratdi. Jumladan, «O`qish kitobi», «O`zbek tili», «Tabiatshunoslik», «Adabiyot» darsliklariga milliy mazmunga ega didaktik materiallarni ko`proq kiritish Respublika o`quv-metodik markazi tomonidan taklif qilindi. Bu sohadagi izlanishlarning ko`lamini tasavvur qilish uchun boshlang`ich sinflar o`quv darsliklariga milliy mazmun berish bo`yicha olib borilgan ishlardan ayrim namunalarni keltiramiz.

1-sinf
“O`zbekiston – mening Vatanim”
“Biz – buyuklar avlodi”
“ Ilm – aql chirog`i”
“Xalq o`giti – baxt kaliti”
“Odob – insonga husn”
“Mehnatning tagi - rohat”
2-sinf
“Ona yurtim - oltin beshigim”
“Maktabim qutlug` makonim, kitobim oftobim”
“Oltin kuz – hosiling yuz”
“Otalar so`zi – aqlning ko`zi”
“Ertaklar yaxshilikka etaklar”

3-sinf
“Ona bitta, Vatan yagona”
“Xalq og`zaki ijodi”
“O`tmishni o`rganish - burchimiz”
“Vatan himoyachilari”
“Orzular qanotida”
“Ulug`lardan o`rganmoq - oqillik”
“Go`zal fazilat – inson husni ”
4-sinf
“Istiqlolim - istiqbolim”
“O`zbekiston – Vatanim manim”
“Ma`naviyat – qalb quyoshi”
“Xalq og`zaki ijodi”
“Vatanimiz o`tmishidan”
“Ajdodlarimiz fahrimiz”

Shuningdek, Respublika o`quv metodik markazi o`zbek maktablarida ta'lim mazmunini milliyashtirish bo`yicha o`z ko`rsatmalarida shunday murojaat qildi: «Mashqlar uchun matnlar, she'rlar va gaplar tanlashni boshlang`ich sinf o`quvchilarimizga havola etamiz, ularning ijodkorligi, izlanuvchanligiga ishonch bildiramiz. Bunda o`qituvchilar qu'yidagi talablarga rioya etishlari zarur.

1. Avvalo tanlangan material mazmunan milliy, odob- axloq talablariga javob berishi, siyosiy mavzuga mutlaqo tsgishli bo`lmasligi lozim.

2. Matnlar, she'rlar dasturning tanlangan bo`limi mavzusini ochib berishga qaratilgan bo`lishi lozim.

3. Tanlangan materiallar bolalar yoshiga mos, ularning fikrlash qobiliyatini o`stiradigan, bolalar ongiga yaxshilik urug`ini ekadigan, yozilishi esa sodda, ravon, tushunarli bo`lmog`i kerak.

4. Matnlar, she'rlar, gaplar o'qituvchilar tomonidan yangi — 1992—93 o'quv yiliga qadar tayyorlanishi va metodik birlashmaning birinchi yig'ilishida muhokama etilishi hamda tasdikdanishi zarur»¹⁵.

Yangi taklif qilingan mavzularda ta'limning tarbiyaviy vazifasiga alohida e'tibor berildi. Masalan, 3-sinf «O'zbek tili» darsligining 215-mashqi uchun «Donishmandlar tarbiya xususida» kitobidan parchalar keltirilgan bo'lib, ular to'la tarbiyaviy qimmatga egadir. Mashq-topshiriqta: «O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering, ular nimani bildirayotganini ayting», deyildi.

«Aziz o'quvchilar! O'qituvchilaringiz sizning ma'naviy otalaringizdir. Shuning uchun ularni chin ko'ngildan seving, nasihatlarini jonu dil bilan qabul qiling. O'qituvchilaringizni hurmat qilib, huzurlarida adabli o'tiring. O'qituvchilaringiz yoningizda o'tirsalar, darhol o'ringizdan turib, salom berib qarshi oling, buyruqlarini kutib turing. Biror narsa so'rasalar, yaxshi javob bering. Darsda tushunmagan savollaringizni muloyimlik bilan so'rang. Maktabni tamom qilganingizdan keyin ham shu hurmatli ustozlaringizni aslo unutmang»¹⁶.

1993—94 o'quv yilida ham dars va darsliklarni milliy lashtirish imkoniyatlarini oshirish izchil davom ettirildi. Respublika o'quv metodika markazi xalq ta'limi xodimlarining avgust kengashiga tavsiyanomalar yo'lladi. Fan mutaxassislari tomonidan yo'l-yo'riqlar «Fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini qanday rejalashtirish kerak?», «qaysi fanlarni o'qitishda qanday jihozlarga e'tibor berish lozim?» kabi savollarga javob tariqasida tayyorlanib, mustaqillikni mustahkamlovchi, milliy g'urur, O'zbe- kiston vatanparvarligi va boshqa sifatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berish lozimligi tavsiya qilindi.

Tadqiqot doirasiga kirgan maktablardagi o'qituvchilarga gumanitar fanlarni yangicha o'qitish, milliy tarbiyaviy vazifalarni belgilash dastlab qiyin bo'ldi. Buning ikki sababi bor edi. Birinchidan, ilmiy istiqloliy tarbiya nazariyasi va uslubiylati bilan o'qituvchilarning qurollantirilmagani; ikkinchidan, o'qituvchilarning tarbiya

¹⁵ Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar. - T.: «Kamalak», 1992. 80-bet.

¹⁶ O'sha manba 90-bet.

nazariyasi, ta'lim va tarbiya birligini amalga oshirish bo'yicha umumpedagogik tayyorgarlik darajasi pastligi edi. Shu bois o'qituvchilarning gumanitar ta'limning milliy mazmuni va tarbiya vazifalarini uyg'unlashtirishiga faol yordam bermoq talab qilinardi. Mazkur zaruratni qondirish maqsadida o'zbek maktabi gumanitar ta'lim mazmunida milliy tarbiyaviy mazmuni asoslash, qayd qilish tamoyili belgilandi. Tamoyilning mohiyati va mazmuni — qo'llanilgan tushunchalar ichidan milliy tarbiyaviy nuqtai nazardan eng ahamiyatlilarini ajratib, ularga tarbiyaviy tus berib, izohlashdan iboratdir. Asta-sekin o'qituvchilar ushbu tamoyil asosida mavzularning milliy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanishning ko'nikma va malakalariga ega bo'lab bordilar. Milliy tarbiyaning maqsadi, vazifalaridan kelib chiqib adabiyot, tarix, musiqa, odobnoma fanlaridagi har bir mavzuga milliy tarbiyaviy tahlil qilish tamoyilini qo'llash yuzasidan o'qituvchilarga tavsiyalar berildi. Shu tariqa darsliklarning milliy tarbiyaviy imkoniyatlarini pedagogik tahlil qilish usuli ishlab chiqilib qo'llanildi. Buni quyidagi namunalarda namoyish qilamiz:

Har bir fazilatni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri — dastlab ana shu fazilat, sifat haqida o'qituvchilarda, keyin esa o'quvchilarda tushuncha, bilimning mavjudligi hisoblanadi. Aks holda bu fazilatlar shaxs xulq-atvorida namoyon bo'lmaydi, namoyon bo'lsa-da, anglanmaganligi tufayli o'tkinchi xarakterga ega bo'lib qoladi. Ikkinchidan, fazilat, sifat haqida tushuncha, bilimning tarbiyalanuvchi ongidagi darajasini qayd qilish lozim. Chunki bunda biz ko'rsatayotgan tarbiyaviy ta'sir, milliy ta'lim mazmuni o'quvchilar tomonidan qanday va qay darajada qabul qilinayotgani, bu ishda nimalar takomillashtirilishi va nimalar tuzatilishi kerakligi aniqlanadi. Darhaqiqat, shaxsning har bir sifati shu sifatning tarkibiy qismlari bo'lmish intellektual, emotsional-irodaviy va amaliy faoliyatning shakllanganligiga va ular orasidagi uyg'unlikka bog'liq. Shu tufayli milliy tarbiyalashlikning har bir fazilati qanday rivojlanganini aniqlashda dastlab o'quvchining yoshiga mos tarzda mazkur fazilat haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, bilimlari o'rganiladi. Uchinchidan, bu respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim mazmunini milliy-lashtirish choralari qanday samara berayotganini o'rganish va takomillashtirish lozim bo'lgan yangi qirralarini belgilash imkonini beradi.

«Milliy g`urur» to`g`ridan-to`g`ri «millatchilik» deya tushuntirilib, unga qarshi munosabat hosil qilingandi. Bu o`quvchilarga berilgan «millatchilik nima?» degan savolga olingan javoblarda ham aks etdi. Masalan, «Magazin, avtobuslarda o`zbekcha gapirish - millatchilik deb o`ylayman», «Men o`zimni millatchi deb hisoblayman, chunki o`z xalqimdan faxrlanaman», «Millatchilik bu — o`z millatini himoya qilish. Men millatchilikni yomon ko`raman» va h.k. O`quvchilarning bir qismi millatchilikning asl mohiyati — bir millatni ikkinchi millatga qarshi qo`yish, o`z millatini ulug`lab boshqalarni pastga urish ekanlishni to`g`ri bayon qilishdi.

Albatta bu choralar milliy-tarbiyaviy tushunchalarni shakllantirish, o`quvchilarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashning muhim bir qismi edi, xolos. Chunki Al-Xorazmiy ta'biri bilan aytganda, «So`z — gul, ish — mevadir». Ya'ni milliy-tarbiyaviy tushunchalarning puxta egallanganligi hali ushbu fazilatlarning o`quvchilarda shakllanganining kafolatini bera olmasdi. O`quvchilarda bu fazilatlarning namoyon bo`lishi (mevaga aylanishi uchun) milliy-tarbiyaviy faoliyat turlari, shakllari, uslublari to`liq ishga tushirilishi lozim edi.

II-BOB. MODERNIZATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONIDA O`QUVCHILARDA MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA USULLARI

2.1. Dars va darsdan tashqari mashg`ulotlarda milliy tarbiyani shakllantirish yo`llari

Yuqorida biz o`quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari va ularni o`rganish, ta'limiy, milliy-tarbiyaviy imkoniyatlarni takomillashtirish uslublari orqali ularni milliy-tarbiyaviy isloh qilish haqida so`z yuritdik. Mazkur vazifa masalaga kompleks, sistemali yondashishni taqozo qiladi. Bu esa: 1) milliy tarbiya maqsadini maktab pedagogik jamoasining mafkuraviy maqsadiga aylantirish; 2) pedagogik jamoani milliy-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga nazariy, uslubiy tayyorlash; 3) o`qituvchi, sinf rahbarlarini milliy-tarbiyaviy vositalar, uslubiy tavsiyalar bilan ta'minlash; 4) maktab tarbiyaviy tizimini shu vaqtgacha uchramagan milliy-tarbiyaviy tadbirlar bilan boyitish; 5) o`quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatlarini milliy-tarbiyaviy maqsadga yo`naltirish; 6) maktabdan tashqari tarbiya muassasalari bilan milliy-tarbiyaviy hamkorlikning ilgor shakl, mazmun, uslublarini qo`llash kabi vazifalarni hal qilish imkoniyatlarini berdi.

Maqsadga yo`naltirilgan milliy tarbiya o`quvchi faoliyatining muayyan shakllari orqali amalga oshiriladi. Faoliyatga asoslangan yondashuvla mukammal hal qilish manfaatidan kelib chiqib, maktablarda o`quvchilarning darsdan tashqaridagi faoliyatining joriy shakllari o`rganildi. Jumladan, o`qituvchilarga «Siz o`quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil qilishda qanday uslub, shakllardan foydalanyapsiz?» degan savol bilan murojaat qildik va javoblarni tahlil qildik.

O`quvchilarning darsdan tashqari faoliyatida milliy g`ururni shakllantirishni pedagogik ta'minlash vazifasi bu jarayonga yangi vositalar, uslublar, mazmuni kiritishni taqozo qiladi. Chunki hali milliy g`ururni yaratuvchilik maqsadlarida tarbiyalash nazariy, amaliy jihatdan ishlab chiqilmagan va bu jarayon aksariyat ijtimoiy tarbiyada amalga oshmoqda. Bu jarayonni ilmiy-uslubiy ta'minlash yangi tadbir va vositalar tizimini ishlab chiqishni talab qiladi.

Milliy-tarbiyaviy tadbir shakl va suhbatlar mazmuni, mavzusi o`quvchilarning yosh xususiyatlari, imkoniyatlari, ijtimoiy tajribaga egaliklariga (milliy rol sub'ekti sifatida) qarab tanlandi. «Biz kimmiz?» rukni doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

Biz nechun sevamiz O`zbekistonni? (munozara).

Milliy o`yinlarimiz (suhbat).

Ismingizning ma'nosi (ma'ruza).

Hasharning mohiyati nimada? (munozara)

Salom va alik (trening).

Dasturxon, taom, odob (mahalla faollari bilan uch- rashuv).

Mehmon va mezbob (mahalla faollari bilan uchrashuv).

Kiyinish odobimiz qanday? (bahs)

Navro`z, hayitlar (Ma'naviyat va ma'rifat markazi vakili bilan uchrashuv).

O`zbek to`ylari, to`yona (mahalla faollari bilan uchrashuv).

Bobolar odati eskilikmi? (etnografik suhbat)

Urug`. Shajara. Millat. Insoniyat (davra suhbat).

Vijdoniylik haqida (munozara).

O`quvchilarning milliy marosim odoblari (bahs).

Misol tariqasida «Bobolar odati eskilikmi?» mavzusidagi suhbatning milliytarbiyaviy imkoniyatlariga namunalarni keltiramiz.

Savobning ma'nosi

O`qituvchi: «Ota-bobolarimiz ham bir vaqtlar xuddi sizlardek yosh bo`lganlar. O`sha paytlarda o`zbek shahar-qishloqlarida bir odat bo`lardi: ayrim uy, hovlilarning ko`cha eshigi oldida bo`sh ko`za, chelakni ko`rish mumkin edi. Bu nimani anglatgan? Bu — «Biz xonadonda qariyalar (yoki bemorlar) yashaymiz. Suvimiz tugadi. Suvni keltirishga quvvatimiz egmayapti» degan ma'noni anglatar edi. Bu erdan o`tib ketayotgan o`smirlar (hozirgi bobolarimiz) qanchalik shoshilmasinlar, qanchalik o`yinni sevmasinlar, «boyaqish kampir, bemor kishi suvsiz qolibdi», deb ko`za, chelakni olib, quduq yoki hovuzdan suvga to`ldirib, o`sha muhtoj kishi yashaydigan eshik tagiga keltirgach, uning halqasini bir-ikki qoqib ketishardi. Ota-bobolarimiz bu ishni «savob, xayrli ish» deb bilganlar.

Bobolarimiz odamlarga shu singari yordamlar berishga doimo tayyor bo'lganlar, ariqlardan, yo'llardan axlatlarni, toshlarni chetga olib tashlaganlar, kattalarga, ayollarga qo'lidan kelgancha ko'mak berishga harakat qilganlar».

«Bobolar odati» suhbatida o'rtaga tashlangan savollar:

1. Nima uchun ayrim hovlilar eshigi oldida bo'sh ko'za, chelak turgan?
2. O'sha paytlar yosh bola bo'lgan bobolarimiz nima uchun bu idishlarni ko'rib, o'tib ketavermaganlar? Axir kasal kishilar suvni kim keltirganini bari bir bilmaganlar-ku?
3. Siz bobolaringizga o'xshab savob ish, yaxshilik qilgan kishilarni ko'rganmisiz? O'zingiz-chi? Misollar keltiring.
4. Imkoniyati bo'la turib savob ish qilmaganlarni-chi? Misollar bormi?
5. Sinf jamoasining bu masalaga munosabati qanday? Biz qanday bolalar, kishilar bo'lmogimiz kerak? Nima uchun?

Milliy-tarbiyaviy fazilatlarning asoslari o'quvchilar o'rtasida kichik maktab yoshidan boshlab asta-sekin takomillashtirilib borildi. Chunki (o'g'il va qiz) bola birinchi sinfga qadam qo'yar ekan, u o'zi bilan birga o'z oilasidagi hayot tarzi, munosabatlar tajribasini ham olib keladi. Maktab esa ularni barchaga barobar umumiy talablar, hammaga bir xil munosabatda bo'luvchi o'qituvchi siymosida kutib oladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchidari maktabdagi «yangi hayot»ga tez ko'nikadilar. Ya'ni, birinchi sinfdan boshlab ulardan qanday fazilatlar talab qilinsa, uqtirilsa, ularni me'yor sifatida tabiiy qabul qiladilar va bajaradilar. Boshlang'ich sinflarda (mustaqil hayotiy tajriba etishmasligi tufayli) bolalar avvalo o'qituvchilariga taqlid qiladilar, ularning fikrlariga alohida e'tibor bilan qarab amal qiladilar. Yangi sharoitning yangi talablarini bayon qiluvchi, ko'rsatuvchi va qayta so'rovchi — «hamma narsani biluvchi» birinchi o'qituvchilarning yuqori darajada va tabiiy holda hurmat qilinishi ham shu bilan izohlanadi. Ya'ni, boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos: o'qituvchilarning so'zlari, talablariga bo'lgan yuksak ishonch, faol ijro etish, tiyrak idrok, soflik, beixtiyorlik, ergashuvchanlik, maktabga, o'qishga ishtiyoq, taqlid orqali xulq-atvor me'yorlarini tez, qarshiliksiz o'zlashtirish milliy tarbiyaning samarali omilidir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda milliy-tarbiyaviy fazilatlarni shakllantirishning ilk va eng qulay davri ekanligi bizning tajribamizda to'la tasdiqlandi. Misol tariqasida mildiy odobning qirralaridan biri — kattayu kichikni «siz»lashga o'rgatish tajribasining natijalarini ko'rsatamiz.

1. «Siz»lash va «siz»lanish orqagi ilgari faqat «sen»langan bolalar birovni «siz»lab hurmat qilishdan, boshqalar esa «siz»lanib hurmat qilinishdan mamnun bo'lishi kuzatildi. Bolalar o'zlaridagi «Men»ning qadrini bila bordilar.

2. O'quvchilarning munosabatlari iliqlashdi, samimiylashdi.

3. Bolaning o'z tengdoshi tomonidan «siz»lanishi — «siz»lanishga loyiqbo'lish majburiyatini yukladi va ularni salbiy harakatlar qilib, birovni xafa qilib, «sen»-lanishdan saqlay boshladi.

4. «Siz»lash 3-sinfdan joriy qilingan sinflarda ilgari tez-tez eshitilib turgan «sen», «o'-o'-v», «o'l», «jinni» kabi dag'al, yoqimsiz so'zlarga barham berdi.

5. Bolalar birovni hurmat qilish, buni namoyon qilish shakli qanday bo'lishini va qanday bo'lmasligi kerakligini amalda ko'ra boshladilar. Bu esa, pedagogik konsilium a'zolarining xulosalariga ko'ra, kelajakda:

a) «Millatni birlashtirishga xalaqit beradigan narsalardan ozod bo'lishimiz kerak» (I. Karimov)ligi haqidagi istiqloliy zaruratni amalga oshirishga; o'zbeklar orasidagi, O'zbekistonning turli millatlari vakillari orasidagi munosabatlarda uchrab turgan sensirash, dag'al, yoqimsiz hazil, qo'polliklarning asta-sekin yo'qolishiga, umummilliy ma'naviy birlikka olib keladi;

b) G'arbda tobora keng tarqalib borayotgan «avlodlar orasidagi tafovut», xudbinlik, individualizm va egoizmning O'zbekistonga kirib kelishiga qarshi ma'naviy immunitetni kuchaytiradi.

Tajriba sinflarida milliy odob va vijdoniylik fazilatlari uyg'unligiga erishish hayajonli natijalar og'ushida kechdi. O'quvchilarga «do'stlik» tushunchasini uqtirishda uning namoyon bo'lishi, chegarasi, burchlari va odo- bi hayotiy misollarda ko'rsatildi. Jumladan, bir o'rtoq

bemor bo'lib qolsa, bu uning uchun, ota-onasi uchun qayg'u keltirishi, ana shunda bemorni yo'qlab borish — har bir do'st, birodar, pok vijdonli sinfdosh, tanishning

o`zbekona burchi ekani, bemor ko`rishning milliy odobi - ko`nikma va malakalari ta'sirchan qilib singdirib borildi.

Milliy odob turkumiga salomlashish madaniyatini shakllantirish ham maxsus vazifa sifatida kiritilgan edi. Dastlab o`quvchilarga salomlashishning ma'nosi, maqsadi, hikmati va uning madaniy ko`rinishlari haqida bilimlar berildi. Keyin salomlashish odobi, xatti-harakatlari ko`rsatildi. Bilimlarni mustahkamlash, hayot bilan bog`lash maqsadida o`quvchilarga turli vaziyatlarda: birinchi bo`lib salom berish; quchoq ochib ko`rishish; qo`l berib ko`rishishning imkoni bo`lmaganda; yig`in o`tayotgan xonaga kirganda; telefonda; oilada; marosimlarda; transportda; yo`lda piyoda ketayotgan paytlardagi salomlashish qoidalari, me'yorlari, tabassum uqtirildi, ko`rsatildi va mashq qildirildi.

Dastlab o`quvchilar buni o`zlariga xos sho`xlik bilan engil qabul qildilar. Biroq keyinchalik ularning munosabatlari o`zgarib, jiddiylasha bordi. Chunki ushbu ko`nikma — salomlashish odobi ularga singdirilayotgan milliy-tarbiyaviy ta'sir tizimining tarkibiy qismi edi. Issiq, samimiy va tabassum bilan salomlashish ular ilgari o`ylaganidek oddiy, e'tiborsiz narsa emas, balki kishiga go`zal va samimiy munosabatni va bu orqali boshqa kishilarda o`ziga ham go`zal va samimiy munosabatni hosil qilishi, bu esa o`quvchilar uchun, ya'ni bo`lajak vrach, fermer, tijoratchi, menejerlar uchun qanchalik muhimligini tushuntirish ularda qiziqish, ma'naviy va hatto moddiy manfaatdorlik hislarini qo`zg`atdi. Bu choralar omuxtalashib, pirovard natijada o`quvchilarda «milliy odob» turkumini tarbiyalashning muvaffaqiyatini ta'minladi.

Milliy istiqlol haqidagi bilimlar, milliy qadriyatni tiklash harakati, turli millatlarga mansub kishilar bilan bo`lgan muloqot ta'sirida o`smirning milliy mafkuraviy dunyoqarashi shakllana boradi. O`smir boshqalar bilan faol muloqotda bo`lishni, o`z his-tuyg`ularini boshqalar tushunishlarini, qalbidagi his-tuyg`ularni bировga aytishni, o`rtoqlashishni istaydi. Ammo bu ehtiyojlarni qondirish uchun unda hayotiy tajriba etmaydi. Ana shu ishtiyoq, intilish, o`smirning o`ziga do`st izlashidan milliy tarbiya maqsaddarida unumli foydalanish mumkin.

O`smirlik davri Sharq muhitida keskin ziddiyatlardan xoli kechsa-da, bu davrning ba'zi xususiyatlari milliy tarbiya jarayonini murakkablashtirishi mumkin. O`smirlarga xos tevarak-atrofga, ijtimoiy, mafkuraviy, milliy-madaniy sohalarga daxldor voqealarga baho berishda o`ta oshirib yoki kamaytirib yuborish hollari o`jarlik tuyg`ularining bekorligiga, bu esa ba'zi hollarda mahalliychilik, milliy xudbinlik, nigilizm, maqtanchoqlik, etnotsentrizm kayfiyatlarining namoyon bo`lishiga olib kelishi ham mumkin. Ana shu salbiy og`ishlarning oldini olish uchun o`smirlar milliy tuyg`ularini qarovsiz qoldirmaslik kerak, balki o`z vaqtida milliy mafkuraviy onglilik, O`zbekiston vatanparvarligi fazilatlarini bilan omuxtalashtirish darkor. Buning uchun O`zbekiston barcha fuqarolar — turli millat vakillarining yagona, yolg`iz Vatani ekani, demak, O`zbekiston bayrog`i — barchamizning bayrog`imiz ekani, demak, O`zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar: rus, qozoq, turkman, tojik, arman, uyg`ur — barchaning maqsadi ana shu yagona Vatanni gullatish bo`lishi lozimligi va to` abad shunday bo`lib qolishi kerakligi; O`zbekistonning quvvati, obro`si, boyligi, millatidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning quvvati, obro`si, boyligi, farovonligi ekani; Vatan, el boshiga ish tushganda, iqtisodiy yoxud boshqa qiyinchiliklar paydo bo`lganida millatdan, Vatandan noligan, uni tashlab engil hayot izlagan kishi «inson» degan nomga loyiq emasligi, qaysi millat o`z Vatani sevmasa o`sha Vatanning, millatning kelajagi yo`qligi; O`zbekistonimizning kelajagi buyukligi va uni barpo etish har bir bolaga bog`liqligi o`quvchilarning e'tiqodiga aylantira borilmog`i kerak.

O`quvchilarda vijdoniylikni tarbiyalash milliy tarbiyaning markaziy vazifalaridan bo`lib, undan maqsad: har bir o`quvchida o`zining o`quvchilik, farzandlik, vatanparvarlik, bo`lajak milliy, fuqarolik burchlarini mukammal anglash va ularga doimo amal qilishni; doimo va hamma joyda rostgo`y bo`lishni; milliy odobga, O`zbekiston vatanparvarligiga, millatlararo muloqot madaniyatiga, milliy istiqloliy mafkuraga, milliy g`ururga zid xatti-harakatni taniy bilish va ularga qarshi turish, o`rtoqlarini bunday yo`ldan qaytarishga harakat qilishni;

va'da bersa mukammal bajarishni; bilmay xato, gunoh qilsa darhol o'zi kechirim so'ray olishga, yolg'onchilik, tuturiqsizlik, subutsizlikni doimo, hamma joyda qoralashga qodirlikni shakllantirish edi.

Vijdoniylikni tarbiyalashga, rivojlantirishga xalaqit berayotgan omillar, o'quvchilarda axloqiy bilim va unga amal qilish orasidagi tafovut sabablari o'rganildi. Ular quyidagilarda namoyon bo'ldi:

ota-onalarning bolalarni aldashlari, va'da berib bajarmasliklari, yo'q narsalar bilan qo'rqitishlari;

oilada, ko'cha-ko'ya vijdoniylikka zid, salbiy misollarni ko'rish (so'kinib gapirish uyatligini bilish, lekin ko'chada ayrim kattalarning so'kinib gapirayotganini ko'rish, eshitish; ukasining onasi tomonidan aldab ovuntirilganini ko'rgach, «yolg'on gapirish mumkin ekan» degan fikrga ko'p marta kelish va h.k.);

tarbiyaning asosan so'z orqali amalga oshirib qolinayotgani;

o'quvchiga qo'yilayotgan pedagogik va boshqa talablaning haddan tashqari soddaligi yoxud aksincha - murakkabligi;

o'quvchining yosh, shaxsiy, psixologik xususiyatlarini hisobga olmaslik;

o'quvchilarda o'zi qilayotgan har bir xatti-harakatning to'g'riligiga e'tiqod va mas'uliyatning shakllantirilmagani;

o'quvchi faoliyat turlarining mazmunan kambag'alligi, cheklangani;

o'quvchilarda oila, mahalla, maktab, ko'cha ve jamoat joylarida o'zini qanday tutish bo'yicha malaka, odatlarning maxsus shakllantirilmagani va mashq qildirilmagani. Natijada, «Odamlarga nisbatan axloq normalari va qoidalarining buzilganligi, axloqiy burchning, jamiyat oldidagi vazifalarning bajarilmay qolishi kishida uyalish hissi va vijdon azobi singari kechinmalar tug'ilishiga sabab bo'ldi»;

o'qituvchi, tarbiyachi, ota-onalar, mahallaning o'quvchilar tomonidan axloq me'yorlarining buzilishiga e'ti- borsizlik, hafsalasizlik, ko'rib-ko'rmaslikka, bilib-bilmaslikka olishi;

o'quvchilarga milliy tarbiyaviy fazilatlar haqida bilim berish bilan cheklanib qolib, shu fazilatlarni namoyon qilishni talab qiluvchi faoliyat turlarini tashkil qilmaslik (masalan, o'quvchiga salomlashish madaniyati haqida bilim berish, lekin

salomlashish madaniyatini sinfga joriy qilmaslik, nazorat qilmaslik, izchillikning etishmasligi);

ayrim o`qituvchilarning o`quvchilarga adolatsiz munosabatlari (masalan, «gap qaytarganlik uchun» kimyodan «2» qo`yish va h.k.);

oila va maktabning milliy-tarbiyaviy talablarining muvofiqlashtirilmagani va boshqalar.

Mazkur holatning pedagogik tahlilidan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida o`quvchilarda milliy istiqloliy vijdoniylikni tarbiyalashning quyidagi choralari belgilandi va amalga oshirildi:

a) o`quvchilarning ijtimoiy foydali, jamoatchilik faoliyatiga milliy ruh, g`oyalar singdirildi;

b) milliy tarbiyaviy tushunchalar va fazilatlar mohiyatini ochib berish maxsus tashkil qilindi;

v) milliy tarbiyaviy fazilatlarning muxoliflari — beadablik, vatanga befarqlik, mahalliychilik, vijdotsizlik, manqurtlik kabi illatlarga qarshi salbiy munosabat shakllantirildi;

g) darsdan tashqari faoliyatni vijdoniylikni tarbiyalashga yo`naltirildi;

d) o`quvchilarni so`z va ish birligini namoyon qilish talab etiluvchi faoliyat turlariga jalb qilindi;

e) o`qituvchilarga, ota-onalarga o`quvchilarda vijdoniylikni tarbiyadash masalalariga oid pedagogik tavsiyalar berildi;

yo) ta'limning milliy tarbiyaviy mazmunidan unumli foydalanildi.

Shu bilan birgalikda, maktabda milliy tarbiya ishlarini talab darajasiga ko`tarish nafaqat dars mazmunini milliy lashtirishni, balki o`quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil qilishda uchrayotgan ilmiy-uslubiy kamchiliklarni tugatishni ham taqozo qiladi. Xullas:

eng avvalo, maktab tarbiyaviy ishlari maqsadi milliy-istiqloliy goya, milliy dastur talablari asosida isloh qilinishi kerak;

sinf rahbarlari ish rejalarida, milliy-tarbiyaviy vazifalarni belgilashda va amalga oshirishda sistemalilik. izchillik shartlari ta'minlanishi lozim;

tarbiyada yakka, tabaqalashtirilgan uslub, yondoshuvlarni takomillashtirish orqali o`g`il va qiz bolalar milliy tarbiyasining umumiy va xususiy holatlari hisobga olinishi kerak;

seminar, pedagogik kengashlar, uslubiy kengash, namunaviy tarbiyaviy soatlarning rejali, maqsadga yo`naltirilgan tizimiga o`tish orqali maktabda milliy tarbiya jarayonining texnologik asosga qo`yilishiga erishish kerak;

tarbiyaviy soatlar majmuasi aniq maqsadga yo`naltirilishi, sistemali, o`zaro bog`liq bo`lishi darkor. Tarbiyaviy soatlar tizimi milliy tarbiyaviy mazmundagi mavzular bilan boyitilmog`i kerak;

ilgari o`quvchilarning xulqi, sinf rahbarining ota-onalar bilan suhbatlari, o`quvchilar bilan yakka ishlash, sinf majlislarining asosiy mavzusi «yomon o`qish» bo`lgan bo`lsa, endi buning haqiqiy mohiyati anglanib, o`quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari bilan isloh qilinishi kerak va buning uchun sinf rahbarlari milliy tarbiya jarayonini o`rganish, qayd qilish, baholashning ko`nikma va malakalariga ega bo`lishlari lozim;

sinf jamoasi tavsiyanomalarida o`quvchilarning milliy odobliligi, O`zbekiston vatanparvarligi, millatlararo muloqot madaniyati, vijdoniyligi, milliy mafkuraviy ongliligi aniq mezonlar orqali baholab borilishi kerak;

sinf rahbarlari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari milliy tarbiyaviy ishlar natijalarining aniq hisob- kitobidan kelib chiqib, yil davomida erishilgan ijobiy va salbiy natijalar, ularning sabablarini tahlil qilishi, kelasi yil tarbiyaviy ishlar mazmuni, maqsadini qanday belgilash haqida ilmiy-pedagogik asosga va malakalarga ega bo`lishlari lozim.

2.2. Maktab, oila va mahallaning milliy-tarbiyaviy hamkorlik yo`nalishlari

Boshqa xalqcham qatori o`zbek oilalarida ham shunday tarbiyaviy an'analar bor, ularni tiklash, boyitish, zamonaviylashtirish, maktab tarbiyasi bilan uyg`unlashtirish, nafaqat har bir oila, balki butun O`zbekiston ijtimoiy- madaniy hayotini ma'nan boyitishga samarali xizmat qila oladi. qolaversa, mustaqil O`zbekiston Konstitutsiyasida ota-onaning bola tarbiyasi uchun davlat oldidagi javobgarligi qayd qilinishi, Prezident I.Karimovning yoshlarni o`qitish, tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimiz ekanligi haqidagi dasturiy fikrlari («Turkiston», 1993 yil 22 iyul) ota-onalar, mahallalar oldiga qator yangi, milliy-istiqloliy talablarni qo`ymoqda.

Milliy istikdolaning muvaffaqiyati ham ko`p jihatdan oilaning milliy-tarbiyaviy imkoniyatlarining muntazam takomillashtirilishiga bog`liq. Zero, oila nizomsiz bo`lsa, uning yomon oqibati butun mamlakatga ta'sir etadi va shu sababdan fazilat o`rniga razolat, taraqqiyot o`rniga tubanlik urchib boradi. Xudoning o`zi asrasin-ku, agarchi biror millat hayotida bunday hol kuchaysa, biling-ki, u millat kitobining so`nggi varag`i ochilgusidir . Bu musulmon oilasining tarbiyaviy imkoniyatlariga bir misol bo`lsa, ikkinchi tarixiy misol sifatida tadqiqotimizning kerakli o`rnida H. Vamberining o`zbek oilasi haqidagi kuzatuv natijalarini keltirgan edik. Tadqiqotimizning ushbu joylari bevosita oila va mahalla tarbiyasiga bog`langanligi tufayli yana yangi dalillarga murojaat qilamiz.

Ma'lumki, VIII asr boshida Qutayba ibn Muslim buxoroliklarni uch marta musulmon qilgan, ular esa yana eski dinlariga qaytgan edilar. «To`rtinchi marta kelganida, Qutayba jang qilib, Buxoro shahrini oldi... Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga yashab, ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo`lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo`ladilar, degan maqsadda Buxoro aholisiga o`z uylarining yarmini arablarga berishga undab, buyruq chiqarishni to`g`ri topdi. Va shu yo`l bilan u musulmonchilikni o`rgatdi... , - deb yozgan edi Narshaxiy . Xulas, arab ahli Ajamni musulmonlashtirish ishini eng muhim o`rin — oilani musulmonlashtirishdan boshlagan. Natijada, dastlab oila musulmonlashgan va u, keyinchalik, Buxoroni «Qubbat ul-islom» — islom dinining gumbaziga aylantirib, shuhratga burkagan. Ana

shu tajribadan kelib chiqib, milliy tarbiyani dastlab oiladan boshlash keyinchalik mahalla, qishloq, shaharlar — O`zbekistonning butun hududida tez va soz joriy qilinishiga olib keladi, deya ishonch bilan aytish mumkin. Bu esa O`zbekistonning istiqloq va taraqqiyot yo`lining pedagogik kafolatini ta'minlashga zamin yaratadi.

Milliy o`zlikning chuqur anglanishi va yaratuvchanlik maqsadlariga yo`naltirilishida oilaning ulkan hissasi bor va bundan oilaning o`zi ham manfaatdordir. Shu tufayli oila milliy o`zlikni anglash hissini tarbiyalashning ilk va doimiy omiliga aylantirilishi lozim. Chunki, har bir o`zbekistonlikning o`z ota-onasi, bobo-buvilari, katta bobo va katta buvi va boshqa ajdodlarini yaxshi bilishi orqali davlat, xalq, millat tarixiga daxldorlik eshigi ochiladi.

Oida tarbiyasi tarixtdan shu narsa ma'lumki, unda «mehnat Qilish» tushunchasi tabiiy zarurat sifatida talqin qilingan, chunki oilalar ishlab chiqarish jamoalarini eslatar, bunda bolalar imkoniyatiga yarasha yumushni bajarar, kattalar bilan birga mehnat qilar edilar. Oilaviy mehnat uning Mustahkamligini oshirdi, bolalarni ulg`aytirish, yoshlarda mehnatsevarlik, halollik, so`z va ish birligi kabi bebaho sifatlarni avloddan-avlodga tarbiya orqali o`tkazish vositasiga aylanib keldi.

O`zbek oilasi milliy dunyoqarash manbai hamdir. Bu hozirgi o`quvchilarda milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Har bir avlod o`z ota-onalaridan o`zlashtirgan dunyoqarashni interiorizatsiya qilib, o`z oilaviy dunyoqarashiga aylantirar va shu asosda farzandlarning milliy dunsqarashini shakllantirib, meros tarzida uzatib keldilar. Dunyoqarashning birligi — milliyligi tufayli avlodlar orasida hamfikrlilik, o`zaro ishonch, izzat, maqsad birligi, samimiylik tantana qilardi.

O`zbek oilasi o`g`il-qizlarda milliy fe'l-atvor, husni xulq tarbiyasi manbai bo`lib keldi. Ota-onalar har kunlik, har soatlik, har daqiqalik tarbiyaviy muloqot jarayonida bolalarga xatti-harakatlar, yurish-turish, so`zlash, kulish, ovqat eyish, yuvinish, muomalaga kirishish, mezbon va mehmon munosabatlari me'yorlarini singdirib keladilar. Ayniqsa, o`g`ilni otalikka, qizni onalikka, uy bekaligiga tayyorlash milliy tarbiyada Rtrik ikki yo`nalish — o`g`il va qiz bolalar tarbiyasi mavjudligini ko`rsatadi.

O`zbek oilasi farzandlar uchun tansihatlik tarbiyasining o`ziga xos maktabi bo`lib keldi. Bu o`rinda opaning vodoprovod jo`mragidan suv ichmoqchi bo`layotgan 7 yoshli ukasiga «Umidjon, to`xta! Sovuqsuv ichma, tomog`ing og`riydi» yoki «Oyi mana, makgabimiz yo`lida o`sgan ekan, ukamning ichi ketsa, qaynatib ichirasiz», - deya zubturum dastasini berishi; 11 yoshli akaning 7 yoshli singlisiga: «Marhabo, yuzingni chala yuvibsan, televizordan uzoqroq o`tir, ko`zing og`riydi», - deya uqtirishi va boshqa ko`plab misollarni keltirish mumkin. Bunday misollar ibtidoiy tibbiy tushunchalarning zamonaviylashib, ota-onalardan bolalarga o`tish namunalaridir. Darhaqiqat, ilgari har bir o`zbek onasi chaqaloqni bedard katta qilish haqida milliy tibbiy choralarni o`rgangan va qo`llay bilgan. Tibbiyotning xalq tabobatiga aylanganligi ham millatimizning yuqori tibbiy madaniyatga ega bo`lganligini ko`rsatadi. Bunda, jumladan, tabobat ilmi asoschisi Ibn Sinoning inson o`z sog`ligini saqlash uchun tug`ilgan kundan to umrining oxirigama amal qilishi lozim bo`lgan tadbirlar xususidagi o`gitlari ham muhim rol o`ynagan.

Oilaning muhim ma'naviy, madaniy xususiyatlaridan yana biri — uning milliyligidir. Shu tufayli u o`zida muayyan milliy madaniyat. milliy tarbiya madaniyatini ham u yoki bu darajada aks ettiradi. Oilani milliy, istiqloliy tarbiyaning` faol omiliga aylanishi uchun uning milliy-madaniy, mafkuraviy, ma'naviy muhiti o`rga- nilishi kerak. Jumladan, oilalarda milliylikka munosabat qanday ekanligini tadqiqot qilish zarur. Ushbu nuqtai nazardan o`zbek oilalarini shartli ravishda 4 guruhga bo`lib o`rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Bola tarbiyasiga qadimiychasiga yoki avtoritar yondashuv
2. Liberal — ko`ngilchan yondashuv.
3. Milliy-zamonaviy, demokratik yondashuv.
4. Marginal yondashuv (boshqa milliy madaniyat asosida tarbiyalash).

Ota-ona obro`si milliy tarbiyaning asosidir. Aynan pu omil orqali ular farzandlarining ongiga, xulq-atvoriga ma'naviy ta'sir qiladilar. Ota-ona obro`si baland bo`lgan oilalarni bolalarning kattalarga hurmat- izzati, e'tibori, mo`tabar onaga maslahat so`rab qilgan munosabatlaridan ham tanish mumkin. Ota-onaning oiladagi hurmati, obro`si, mavqei esa ularning bola tarbiyasi bilan maxsus shug`ullanayotgani yoki shug`ullanmayotganiga bogliq. Ota-ona obro`sini, aslida, ularning farzandi

shaxsi bilan qiziqishi, o`quvchi farzandlarining o`tib borayotgan ehtiyojlarini o`rganib, boshqarib, qondirib borishi oshiradi. Kuzatuvlar hayotda ota-onaning tarbiyachi sifatidagi obro`sin tushiruvchi sabablar ham mavjudligini ko`rsatdi. Bular:

— ota-onaning o`zini asosan farzandining boquvchisi sifatida anglab, tarbiyachi ham ekanini chuqur anglamasligi;

— oilalarda uchrovchi axloqsiz turmush tarzi; ota-onaning bolalariga aytgan so`zlari, pand-nasihatlari va amaldagi xatti-harakatlari orasidagi tafovut;

— ota-onaning farzandiga qilgan xizmatini minnat qilaverishi, ular bilan asosan, buyruq, hukm tarzida muomata qilishi;

— ota-onaning o`quvchi farzandlari hayoti, qiziqishlariga e'tiborsizligi, ularga vaqt va diqqat ajratmasliklari, oila yumushlariga me'yorda jalb qilmasligi (o`smir- lar o`zlariga iisbatan bunday befarqlikdan qattiq iztirob chekadilar, u ota-ona va o`smir orasiga sovuqlik tushiradi);

— o`quvchi farzandlar bilan munosabatda ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqmaslik va boshqalar.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari ota-onaning qarashlari, fe'l-atvoriga kuchli taqlid qiladilar. O`smirlik boshlangach, bolada keskin o`zgarish - o`tish davri boshlanadi. Ota-onalar va bolalar orasidagi ziddiyatlarning asosiy qismi shu davrga to`g`ri kelishining boisi ham shundan Ota-onaning farzandiga xos yosh xususiyatlarini bilmasligi o`smirlarning ota-onadan (ko`pchilik hollarda otadan) qalban uzoqlashuviga olib keladi. Qolaversa,

— ota-onaning o`zini farzandi uchun har kuni, har soat, har daqiqada shaxsiy namuna ekanini anglamasligi;

— ota-ona, oila a'zolari orasida o`quvchi farzand oldiga qo`yiladigan tarbiyaviy talablarda yakdillikning etishmasligi;

— o`quvchi kundalik hayotidagi rejasizlik, tartibsizlik, aniq maqsadga yo`naltirilmaganlik;

— rag`batlantirish va jazolashda tarbiyaviy maqsad ustuvorligini anglamaslik;

— milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishda izchillikning etishmasligi;

— bolani tan jazosi bilan qo`rqitish;

— ota-onaning farzandlar ko`z o`ngida tez-tez janjallashib turishi;

— uyda oshkora ichkilikbozlik qilinishi;

- behayo soʻzlar, qargʻishlar, soʻkinishlar;
- oʻz farzandini hech shubhasiz «eng yaxshi» deb hisoblash;
- «Biz qiynalganmiz, bolalarimiz rohat qilsin», — deb qarash tufayli farzandni erkalatib yuborish;
- bolalarni yasantirishga hirs qoʻyish yoki buning aksi;
- «Bola qiynalib katta boʻlsa, ota-onaning, mehnatning, hayotning qadriga etadi», — deya koʻr-koʻrona qattiqqoʻllik, zarda qilaverish;
- oʻquvchi-farzandiga vaʼda berib bajarmaslik;
- maktab bilan taʼlim-tarbiyaviy hamkorlikdan oʻzini chetga olish;
- oʻquvchi bolalarini oʻz ajdodlari, shajaralari bilan tanishtirmaslik va tarbiyadagi boshqa koʻpdan-koʻp katta-kichik qusurlar koʻz oʻngimizda shayutlanayotgan shaxsning taqdirida kuchli salbiy asoratlar qoldirishi mumkin.

Oʻzbek oilasida yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf qilishda otalarning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Zero, maqollarimizda qayta-qayta takrorlanib kelinganidek, «Otaning ochgan yoʻli bor, onaning bichgan toʻni bor», «Otasi borning unumi bor, onasi borning tinimi bor», «Ota — olamning faxri», «Erta tur, otangni koʻr, otangdan soʻng otingni koʻr», «Otangni koʻrsang, otdan tush», «Ota boʻlish oson, otalik qilish qiyin», «Ota bolaga sinchi», «Oʻgʻlingni sevsang, qulingday ishlat», «Otarlar soʻzi xitob boʻlur, ani yigʻsang, kitob boʻlur»...

Onaning oʻzbek oilasidagi hurmati, oʻrni alohida, jipslashtiruvchi ahamiyatga ega. Chunki «Onaga boʻlgan muhabbat — Vatanga boʻlgan muhabbatning kurtagi», «Onaning koʻngli bolada, bolaning koʻngli dalada», «Onang oʻgay boʻlsa, otang oʻzingniki emas», «Bola loy, ona — kulol», «Bola ham ona deydi, ona ham ona deydi», «Onangning yaxshiligini bemor boʻlsang bilarsan» va h.k. Bu esa oʻzbek qizlarini onalikka tayyorlashga - ularda mehribonlik, gʻamxoʻrlik, mayinlik, yaqin kishilarni qadrlash, himoya qilishga ehtiyojni shakllantirishga alohida eʼtibor berishni talab qiladi. Ota-onaning izchil tarbiyachilik mehnati esa ularni yaxshi farzandlarning ota-onalari boʻlish sharafiga muyassar qiladi. Oʻz tarbiyachilik burchlarini bajarmasligi yoki bajara olmasliklari natijasida ular «yomon» deb nom chiqargan oʻgʻil-qizlarning ota-onalariga aylanadilar. Chunki oʻgʻil-qizlarning «yomon» boʻlib tugʻilmasliklari bundan qariyb 1300 yil ilgari Yusuf Xos Hojib tomonidan «oʻgʻil-

qizning fe'li-xulqi yaxshi yoki yomon bo'lsa, uning sababchisi ota va onadir»¹⁷ shaklida ifodalangan edi.

Ota-onaga mehrlilik o'zbek bolasi milliy odobining eng birinchi sifatidir. Shu bilan birga, ushbu sifatning eng birinchi, bosh tarbiyachisi ham oila, ota-onaning o'zidir. Keyingi yillarda ilmiy-pedagogik adabiyotlarda «ota-ona nazokati» tushunchasi paydo bo'ldi. Bu pedagogik xislat ota-onalar tomonidan farzandlarga oqilona tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olish: to'g'ri va iliq munosabatda bo'lish, g'amxo'rlik qilish, farzandlariga omilkorlik bilan talablar qo'ya olish, inson qadriyatini hurmatlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Xullas, «ota-ona nazokati» tushunchasi kelajakda har bir ota-ona ilmiy pedagogik madaniyatining tarkibiy qismiga aylantirilmog'i kerak. Ota-onaning ilmiy pedagogik madaniyati — ota va ona umumiy madaniyatining tarkibiy qismidir. Unda ota-ona mansub xapqning tarix lavomida to'nlagan oilaviy tarbiya tajribasi sintezlashadi va muayyan ota-onaning oilaviy tarbiyachilik faoliyatida namoyon bo'ladi.

O'quvchi yoshlarda ajdodlar yodi, ruhi pokiga hurmat, sadoqatni tarbiyalashga mazkur tadqiqotda ishtirok etgan maskanlardan biri — Sho'rchi tumani mahallasida alohida ahamiyat berilmoqda. Masalan, mahalla qo'mitasi raisi, sobiq o'qituvchi F. Narziev va qo'mita faollari S.Qurbonov, B. Boboqulovlar mahalla xonadonlarida bo'lishib, qabristonning atrofini tozalash hashariga mahalla ahlini da'vat etdilar. Har yilgi qasharlardan farqli o'laroq, hasharga o'quvchi yoshlarni ham taklif qilish kerakligi, buning ahamiyati ota-onalarga tushuntirildi.

Oilani milliy pedagogik o'rganish sinf rahbariga o'quvchi o'sayotgan oilaning turmush tarzi; milliy-tarbiyaviy imkoniyatlari, oila tarkibi, oilaning milliy, istiqloliy qadriyatlarga munosabati va boshqalar haqida qimmatli ma'lumotlar to'plashga imkon beradi. Oilani milliy pedagogik o'rganish bola maktabga qabul qilingan kundan boshlanishi lozim. Bu keyinchalik har bir o'quvchining milliy tarbiyasiga alohida yondashuv dasturini yaratish imkonini beradi. Oilani milliy pedagogik o'rganish usullari quyidagilardan iborat:

— o'quvchilarning milliy odobi va o'qishini kuzatish;

¹⁷ Yusuf Hos Hojib. Qutadg'u bilig. — T.: «Fan», 1972.

— oilalarga tashrif buyurganda ota-ona, ona-bola, ota- bola, aka-uka, va h.k.lar orasidagi munosabatlarni kuzatish;

— oilaviy marosimlarda qatnashish;

— ota-onani maktabga taklif qilib, yakkama-yakka suhbatlashish;

— oilada milliy madaniyat, o`tirish-turish, jihozlar, ma`rifatga, ma`naviy qadriyatlarga munosabatni kuzatish;

— televidenie, radio, gazeta, jurnallardan qanday mavzularni yoqtirishlarini aniqlovchi anketa-so`rovlarni tashkil qilish;

— o`quvchilarga o`z oilalari, ajdodlari haqida insho yozdirish;

— ota-onalar qo`mitasi yigilishlari ishiga milliy tarbiyaviy vazifalarni kiritish va h.k.

Yuqoridagi uslublarning faol qo`llanilishi, ota-onalar bilan o`tkazilgan tarbiyaga oid huquq va majburiyatlar haqidagi suhbatlar, ularni zamonaviy bolalar tarbiyasi muammolariga jalb etish, milliy tarbiyani mahalla, qishloq oqsoqollari kengashlari faoliyati yo`nalishiga aylantirish va boshqa choralar ota-onalarning tarbiyachilar sifatidagi faolliklarining ortishiga olib keldi. Sinf rahbarlari tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari rining sistemali olib borgan ishlari milliy tarbiyani amalga oshirishda oila, mahalla imkoniyatlarini to`laroq ishga solishni ta'minladi. Buning natijasi o`laroq, tajriba maktablarida faol ota-onalarning salmog`i orta bordi (ota-onalarning umumiy soniga nisbatan foiz hisobida):

Xullas, umumiy o`rta ta'lim maktablari ta'lim mazmunini milliy-tarbiyaviy maqsadlarga sistemali yo`naltirish tamoyillaridan unumli foydalanish; o`quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini milliy-tarbiyaviy imkoniyatlarini ochish va maqsadli qo`llash; maktab, oila, mahallaning milliy tarbiyaviy hamkorligining hayotiy uslub, vositalarini joriy qilish o`quvchilarda milliy-tarbiyaviy fazilatlarni shakllantirishga kompleks, sistemati yondashuvni ta'minladi.

Xulosa

Mustaqil O'zbekistonda amalga oshiriluvchi milliy tarbiyaning maqsadi – xalqimiz, Prezidentimiz, milliy istiqlol mafkurasining yosh O'zbekistonliklarda muayyan fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy buyurtmasini o'rganish, aniqlash va amalga oshirishni ilmiy ta'minlashdir.

Millatlarning qadimiyligi milliy tarbiyaning qadimiyligini, millatlarning mavjudligini millatlarning bundan keyin ham mavjud bo'lishi esa milliy tarbiyaning bundan keyin ham mavjud bo'lishini, adabiyiligini ko'rsatadi.

Har bir xalqqa, demak o'zbek xalqiga ham xos bo'lgan milliy tarbiya insonparvarona maqsad va mohiyatga ega. Hech bir xalq millatchi emas. Millatchilik o'z va o'zga xalqlarning milliy-ma'naviy qadriyatlaridan begona, milliy tuyg'ularistixiyali shakllangan, bir so'z bilanaytganda, milliy tarbiyalanmagan kishilardagina nomoyon bo'ladi.

Milliy tarbiya jarayoni har biro ta-ona, mahalla mustaqil O'zbekiston har bir maktab o'quvchisidan kutayotgan ijobiy fazilatlar majmuini shakllantiradi. Milliy g'urur, O'zbekiston vatanparvarligi, milliy odob, millatlararo muloqot madaniyati, vijdoniylik milliy mafkuraviy onglilik fazilatlari mustaqillikni mustahkamlashning doimiy zaruratidir.

Milliy tarbiyaning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchilarning mazkur faoliyatni boshqarish maxsus yo'naltirilganligiga bog'liqdir.

Har qanday tarbiyaviy yo'nalish kabi milliy tarbiyaning muvaffaqiyati bu jarayonning ilmiy asosda tashkil qilinishiga – maqsad, vazifa, vosita, natijaga sistemali yondoshuv, ularni o'rganish, qayd qila boorish va milliy istiqlolning har bir bosqichi talablari asosida boyita borilishiga bog'liq.

Bitiruv malakaviy ish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:
Modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida o`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirish mazmuni boyitildi.

O`quvchilarda milliy tarbiyaning shakllanganlik mavjud holati o`rganildi.

O`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov anketa mtodlaridan foydalanib samaradorlikka erishildi.

Modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda maktab, oila, mahalla hamkorligining samaradorligi aniqlandi.

O'quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda tahlil, pedagogik kuzatuv, anketa sinov kabi metodlardan foydalanib samaradorlikka erishildi.

Tavsiyalar

1. Bitiruv malakaviy ish natijalari quyidagi tavsiyalarni taqdim etishga imkon beradi:
2. Modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishning mazmunini boyitish va kengaytirish.
3. Milliy tarbiyani shakllantirishda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy meros, asrlar davomida to'plagan milliy qadriyatlar, urf-odatlardan foydalanish.
4. O'quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda maktab, oila mahalla hamkorligini o'rnatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - T.: O'zbekiston, 1997-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997-yil.
3. Karimov I.A. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovan hayot pirovard maqsadimiz”. – T.: O'zbekiston. 2000. 418-b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston “milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”.- T.: O'zbekiston. 1993. 218-219-b.
5. Karimov I.A. “Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman”.II Fidokor gazetasi. 2000. 8-iyun.
6. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. T.: O'zbekiston. T. 7. 1997. 140-b.
7. Karimov I.A. “Xavsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida”. T.: O'zbekiston. T.6. 1998. 125-b.
8. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”.
9. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. T.: sharq. 1999.
- 10.Hakimov N. “Milliy g'urur va madaniy saviya” j. Muloqot. 2000.N.4. 15-18-b.
- 11.Alisher Navoiy Mahbub ul-qulub. –T.1983 y. 59-b.
- 12.Bobur. Boburnoma. T.: Yulduzcha. 1990 y.
- 13.Vamberi H. buxoro `hud Movaraunnahr tarixi. Toshkent, “adabiyot va san'at” nashriyoti 1990, 75-bet.
- 14.Jumaboyev o'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. Toshkent, “O'zbekiston” nashriyoti. 1980 yil, 104-bet.
- 15.Ibrohimov A. davlat tafakkuri yo'lida. “O'zbekiston ovozi” 1992 yil 22 iyun.
- 16.Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. Toshkent, “Fan”.

17. Komilov I. “Komil inson – millat kelajagi”. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2001 yil.
18. Ochilov M. Muallim qalb me‘mori. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2001 yil.
19. Uzoqov X., G‘oziyev E., Tojiyev A. Oila etikasi va psixologiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992 yil, 76-bet
20. Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. “Sharq yulduzi”, 8-son
21. Qo‘shjanov M. “Adib ma‘naviyati mustaqillik xizmatida. O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, 1993 yil iyun.
22. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2007 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI	
1.1. Milliy tarbiyaning mazmuni.....	7
1.2. Ta'lim jarayonida o`quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda ta'lim muassasalarining imkoniyatlari.	36-
II-BOB. MODERNIZATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONIDA O`QUVCHILARDA MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA USULLARI.	
2.1. Dars va darsdan tashqari mashg`ulotlarda milliy tarbiyani shakllantirish yo`llari.	50
2.2. Milliy tarbiyani shakllantirishda oila maktab, mahalla hamkorligi.	59
XULOSA VA TAVSIYALAR.	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.	68